

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR**  
**VAZIRLIGI TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**MAGISTRATURA BO'LIMI**

Qo'lyozma huquqida

UDK:811.512.133.81.37/81.362.

**IBOTOVA SHAXNOZA SADULLOYEVNA**  
**O'ZBEK TILIDA OTLASHGAN SO'ZLARDA**  
**GRAMMATIK VALENTLIK**

**70230101-Lingvistika:o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:



f.f.f.d,dots. O'. Xoliyorov

**Termiz 2023**

Magistr dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti rektorining  
2022-yil 24-yanvardagi №2-T/M sonli buyrug'i asosida  
tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti ozbek tilshunosligi  
kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat  
universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manziling QR-kodi:



Magistr dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining  
axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24 raqami bilan ro'yxatga  
olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy)

Ilmiy rahbar:



Kafedra mudiri:

Magistratura bo'lim boshlig'i:

f.f.f.d.dots. O'. Xoliyorov

P.h.D N. Amanturdiyev

p.f.f.d. A. Narbayev



# MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. LEKSIK-SEMANTIK VALENTLIK, UNING MOHIYATI, O‘RGANILISHI VA SINTAKTIK QOLIP TUZILISHINI BELGILASHDAGI AHAMIYATI.....</b>	<b>9</b>
1.1. O‘zbek sintaktik ta’limoti va uning taraqqiyoti. Lisoniy-sintaktik qolip.....	9
1.2. Valentlik tushunchasi ta’rifi va valentlik nazariyasining rivojlanishi.....	18
1.3. Valentlik mohiyati va sintaktik qurilma tuzilishini belgilashdagi ahamiyati .....	23
I Bob bo‘yicha xulosa.....	31
<b>II BOB. GRAMMATIK VALENTLIK VA UNING SINTAKTIK QURILMA TUZILISHIDAGI AHAMIYATI.....</b>	<b>33</b>
2.1. Semantik-sintaktik guruhlar valentligi va o‘ziga xos xususiyatlari.....	33
2.2. Grammatik kategoriyalarning sintaktik qurilma tuzilishiga ta’siri.....	45
II Bob bo‘yicha xulosa.....	52
<b>III BOB. O‘ZBEK TILIDA OTLASHGAN SO‘ZLARDA GRAMMATIK VALENTLIK VA UNING SINTAKTIK QURILMA TUZILISHINI BELGILASHDAGI TA’SIRI.....</b>	<b>55</b>
3.1. O‘zbek tili otlashgan so‘zlar valentligi va ularning o‘ziga xos jihatlari.....	55
3.2. Otlashgan so‘zlardagi grammatik valentlikning leksik-semantik ta’siri darajalari.....	65
III Bob bo‘yicha xulosa.....	69
<b>XULOSA .....</b>	<b>71</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>74</b>

## KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Jahon tilshunosligida XX asrning boshlarida o‘rganila boshlangan valentlik (leksik valentlik, semantik valentlik, leksik-semantik valentlik, semantik-sintaktik valentlik) asosan leksikaning semantik xususiyatlari va nutqda bir leksemaning boshqa leksemalar bilan bog‘lana olish qobiliyati nuqtai nazaridan tadqiq etib kelingan edi. Ammo til hodisalariga substansial yondashishda leksik valentlik bilan birga grammatik valentlik grammatik (morfologik) shakllarning valentligi tushunchasi ham farqlanadi va bu tilshunoslikda o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan sanaladi. Valentlik nazariyasida tilga substansial, ya’ni ma’lum bir turdagi imkoniyatlar majmui, yashirin potentsiya sifatida yondashish metodologiyasi inikosini ko‘rish mumkin. Valentlik nazariyasining substansial yondashuv bilan bunday metodologik (genetik-ontologik) yaqinlashishi hozirgacha maxsus tadqiq manbai bo‘lgan emas va bu muammoni tadqiq qilishni taqozo etadi.

Jahon lingvistikasida semantik hamda sintaktik xususiyatlari o‘zaro uyg‘unlashgan semantik-sintaktik guruhlar (SSG)ni ajratish, ularning sintaktik qurilma tarkibi va strukturasi ta’siri masalalarini o‘rganish tilshunoslar e’tiborini tortmoqda. Shular bilan bevosita aloqador grammatik shakl va so‘z shaklini imkoniyatlar majmui sifatida qarash hamda mazkur imkoniyatlarning sintaksisda voqelanishi masalasini, substansial morfologiyaning gap valentligi bilan munosabatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘z turkumlari ichida semantik-sintaktik guruhlarini ajratish va ular tuza oladigan sintaktik qurilmalarning tarkibiy modellarini berish, grammatik shakl valentligini o‘rganish asnosida leksik-semantik va grammatik valentliklarning o‘zaro uyg‘unlashgan shaklda voqelanish ko‘rinishi bo‘lgan so‘z shaklning umumiy lisoniy qolipini yaratish kabi ustuvor yo‘nalishlardagi tadqiqotlar ham e’tiborga molikdir.

Mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davrida til va ma’naviyat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masala bo‘lib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari bilan global sohalarda o‘zaro aloqalar

o‘rnatilayotgan bugungi kunda har bir millatning ruhiyatini o‘zida aks ettiradigan til hodisalarini substansial asoslarda o‘rganish shu xalqning ma‘naviy qadriyatlari bilan bog‘lik bilimlarni oshirishda muhim omildir.

2016-yil 30-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev mamlakatning yetakchi olimlari, ziyolilari, akademiklari bilan uchrashib, bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilayotganini, zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin ekanini ta’kidlab o‘tdiki<sup>1</sup>, bu o‘z navbatida, valentlik munosabatlarni atroflicha tahlil etishga, grammatik valentlik ilmiy tushunchasini shakllantirishga imkoniyat yaratdi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining<sup>2</sup> davlat dasturida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish tilshunoslik sohasida ham chuqur va yangicha izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida», 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqot obyekti** – Otlashgan so‘zlardagi grammatik valentlik

**Tadqiqot predmeti** – Otlashgan so‘zlardagi grammatik valentlikning o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlari

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili // Xalq so‘zi. - 2017.- 6 yanvar. - B.1.

<sup>2</sup> Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // Xalq so‘zi. - 2017.- 8 fevral. - № 28 (6722).

**Tadqiqotning maqsadi** – O‘zbek tili otlashgan so‘zlardagi grammatik valentlikning xususiyatlarini nazariy va amaliy tahlil etish va umumlashtirilgan xulosalar, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** – quyidagilar:

- O‘zbek sintaktik ta’limoti va uning taraqqiyotini tadrijiy o‘rganish;
- Valentlik tushunchasi ta’rifi va valentlik nazariyasining rivojlanish bosqichlarini tahlil etish;
- Valentlik mohiyati va sintaktik qurilma tuzilishini belgilashdagi ahamiyatini ko‘rib chiqish;
- Semantik-sintaktik guruhlar valentligi va o‘ziga xos xususiyatlarining mohiyatini yoritish;
- Grammatik kategoriyalarning sintaktik qurilma tuzilishiga ta’sirini o‘rganish;
- O‘zbek tili otlashgan so‘zlar valentligi va ularning o‘ziga xos jihatlarini tahlil etish;
- Otlashgan so‘zlardagi grammatik valentlikning leksik-semantik ta’siri darajalarini qiyosiy tadqiq etish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** – quyidagilardan iborat:

- lingvistika uchun tamoman yangi masala - grammatik shakl valentligi, uning leksik-semantik valentlikka munosabati, grammatik shakllarning valentlik xususiyatlariga ko‘ra tasnifi hamda otlashgan so‘zlardagi grammatik valentlik kabi ilmiy tushunchalari tahlil etilgan;
- grammatik shakllarning leksema leksik-semantik valentligiga ta’siri morfologik va sintaktik kategoriya shakllari misolida tahlil qilinib, otlashgan so‘zlar semantik-sintaktik valentligiga ta’sir etish xususiyatiga ko‘ra darajalanishi aniqlangan;
- o‘zbek tilshunosligida ilk bor valentlik nazariyasi nuqtai nazaridan fe’l bo‘lmagan so‘z turkumlari ichida ham ma’noviy, ham valentlik xususiyatlari bilan umumiylikka ega bo‘lgan leksik birliklar birlashadigan  ${}_nSSG^h$ ,  ${}_nSSG^k$ ,  ${}_nSSG^e$ ,  ${}_nSSG^q$ ,  ${}_aSSG^a$ ,  ${}_aSSG^T$ ,  ${}_{nu}SSG$ ,  ${}_{ad}SSG^{talab/}$ ,  ${}_{ad}SSG^{ma}$  kabi semantik-sintaktik guruhlar

ajratilgan va otlashgan soʻzlar tuza oladigan sintaktik qurilmalarning modellari berilgan.

**Tadqiqotning asosiy masalalari:** Leksik-semantik birliklardagi valentliklarni tahlil etish, shuningdek, feʼl soʻz turkumi doirasidagi grammatik valentliklarni boshqa soʻz turkumlari doirasida ham oʻrganib chiqish dissertatsiyamizning asosiy masalasi hisoblanadi

**Tadqiqotning farazi:** Tadqiqotlarda keltirilgan feʼl soʻz turkumidagi grammatik valentliklar asosida otlashgan soʻzlar bilan leksik birikish orqali yuzaga keladigan grammatik valentliklarni kashf etish.

**Tadqiqot mavzusi boʻyicha adabiyotlar sharhi:** Lisoniy valentlik qonuniyatlarini asosan feʼl valentligi misolida maxsus tadqiq etishda oʻzbek tilshunoslari: I.K.Qoʻchqortoyev<sup>3</sup>, A.A.Salkalamanidze<sup>4</sup>, R.Rasulov<sup>5</sup>, V.A.Karimjonova<sup>6</sup>, Oʻ.Sharipova<sup>7</sup>, S.H.Muhamedova<sup>8</sup>, M.M.Mirtojiyev<sup>9</sup>lar; rus olimlari: S.D.Katsnelson<sup>10</sup>, S.M.Kibardina<sup>11</sup>, M.D.Stepanova<sup>12</sup>, N.I.Filicheva<sup>13</sup> hamda xorijlik G.Xelbig, A.Balveg-Shramm, G.Shumaxer, L.Tener<sup>14</sup> kabi olimlarning xizmati beqiyos. Jumladan, xorijda soʻz turkumlari valentligi,

---

<sup>3</sup> Кучкартаев И.К. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке. - Ташкент: Ўқитувчи, 1977. – 168 с.

<sup>4</sup> Цалкаламанидзе А.А. Семантико-синтаксические группы глаголов в узбекском языке. Тбилиси: Мецниереба, 1987. – 129 с.

<sup>5</sup> Расулов Р. Ўзбек тилидаги холат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. - Тошкент: Фан, 1989. - 142 б.

<sup>6</sup> Каримжонова В.А. Ўзбек тилида ўрин келишликли бирикмалар семантикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент, 1994. -24 б.

<sup>7</sup> Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент, 1996. -23 б.

<sup>8</sup> Мухамедова С.Х. Ўзбек тилидаги ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. - Тошкент, 2007. - 402 б.

<sup>9</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. - Тошкент: Университет, 2007. - 64 б.

<sup>10</sup> Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности // Вопросы языкознания. - Москва, 1987. - №3. - С. 20-32;

<sup>11</sup> Кибардина С.М. Категории субъекта и объекта и теории валентности // Категория субъекта и объекта в языках различных типов.-Л.: Наука, 1972. - С.23-44.

<sup>12</sup> Степанова М.Д. Теория валентности и валентный анализ (на материале современного немецкого языка). - Москва: Высшая школа, 1973. - 215 с.

<sup>13</sup> Филичева Н.И. Понятие синтаксической валентности в работах зарубежных языковедов // Вопросы языкознания. - Москва, 1967. - №2. - С.119-120.

<sup>14</sup> Бальвег-Шрамм А., Шумахер Г. Словарь глагольных валентностей на семантической основе// Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XIV. Проблемы и методы лексикографии. - Москва: Прогресс, 1983. - С. 201-226; Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. - Москва: Прогресс, 1988.- 656 с; Helbig G., Schenkel W. Worterbuch zur Valenz und Distrbution deuten Verben. VEB Bibliodraphisches institut.- Leipzig, 1969.; Sommerfeld Karl-Ernst, Schreiber Herbert. Worterbuch zur Valenz und Distribution der Substantive. WEB Bibliographisches Institut Leipzig, 1980. – 432 s.

semantik va sintaktik valentlik ko‘rinishlari o‘rganilgan hamda bu sohada so‘zlar birikuviga doir bir qancha lug‘atlar yaratilgan.

O‘zbek tilshunosligida I.K.Qo‘chqortoyev nutq fe‘llarini, A.A.Salkalamanidze fe‘l so‘z turkumi doirasidagi semantik-sintaktik guruhlarini, R.Rasulov holat fe‘llari va ularning obligator valentliklarini, V.A.Karimjonova o‘rin kelishikli birikmalar semantikasini, O‘.Sharipova yumush fe‘llari ma‘no valentligini, S.H.Muhamedova harakat fe‘llari valentligini, M.Mirtojiyev fe‘l valentligini o‘rganib, o‘zbek tilshunosligida valentlik nazariyasini shakllantirdilar. Ammo valentlikning ko‘rinishi bo‘lgan grammatik shakl valentligi ilmiy tushunchasi maxsus tahlil manbai bo‘lmagan.

Tilshunosligimizda mustaqil yo‘nalish sifatida shakllangan o‘zbek formal-funksional tilshunosligi<sup>15</sup> gapning eng kichik qurilish qolipi<sup>16</sup> va uning kengayishi, sodda gap qurilishida hol va to‘ldiruvchi munosabati<sup>17</sup>, uyushiq kesim tabiati<sup>18</sup>, qo‘shma gap qurilishi bilan aloqador bo‘lgan qator masalalarning monografik tadqiqini berdi. Lekin substansial morfologiya, ya’ni grammatik shakl va so‘z shaklini imkoniyatlar majmuasi sifatida qarash hamda imkoniyatlarning sintaksida voqelanishi masalasi, substansial yondashishning valentlik nazariyasi bilan aloqalari, sintaktik qurilmalarning morfologik shakl bilan aloqalari hozirgacha chet el va o‘zbek olimlari tomonidan yetarli darajada tadqiq etilmagan va ushbu mavzu bo‘yicha maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan. Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan va boshqa bir qator o‘zbek hamda jahon tilshunoslarining tadqiqotlari e‘tiborga olindi, ularga munosabat bildirildi.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi:** Dissertatsiyani yozishda ilmiy bilishning zamonaviy usullari, shu jumladan mantiqiy, statistik, qiyosiy tahlil hamda sintez usullaridan foydalanildi.

---

<sup>15</sup> Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. - Тошкент, 2001. - 51 б.

<sup>16</sup> Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда вокеланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент, 1994. -19 б.

<sup>17</sup> Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. - Тошкент, 1997. – 22 б.

<sup>18</sup> Ёров Б. Уюшиқ бўлакли содда гаплар талқинига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1996. – №4. – Б. 37-40.



### **Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:**

Tadqiqot o'zbek tili grammatik shakllari substansial tabiatining yangicha tahlilidagi tegishli bo'shliqni to'ldirib, mavjud talqinlardagi ayrim kamchiliklarni, munozarali masalalarni bartaraf etishda ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'zbek tili yangi ilmiy grammatikasini yaratishda dissertatsiyadagi material alohida mavqega ega.

Ishning amaliy ahamiyati esa: a) oliy ta'limning o'zbek filologiyasi yo'nalishlarida «Hozirgi o'zbek tili» kursi dastur va darsliklarida grammatik kategoriya hamda grammatik shaklga doir mavzularni rejalashtirishda, bayon etishda manba vazifasini o'tashi; v) o'zbek tili morfologiyasi muammolari bo'yicha ixtisoslik ta'limi kurslarini o'qitishda foydalanilishi; b) o'rta ta'lim bo'g'inlarida o'zbek tili o'qituvchilariga gap qurilishi va grammatik shakl valentligi bilan daxldor mavzular bo'yicha yordamchi metodik qo'llanmalar tuzishda qo'l kelishi; g) hozirgi zamon kompyuter lingvistikasining rivojlangan sohalari bo'lgan avtomatik tarjima, til o'rgatish jarayonini avtomatlashtirish hamda valentlikka asoslangan lug'atlar yaratish bilan belgilanadi.

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Tadqiqot ishining tuzilishi quyidagicha tavsiflanadi: kirish, uch asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

# **I BOB. . LEKSIK-SEMANTIK VALENTLIK, UNING MOHIYATI, O‘RGANILISHI VA SINTAKTIK QOLIP TUZILISHINI BELGILASHDAGI AHAMIYATI**

## **1.1. O‘zbek sintaktik ta’limoti va uning taraqqiyoti. Lisoniy-sintaktik qolip.**

Sintaksis tilning mustaqil atov birliklari bo‘lgan so‘zlarning o‘zaro birikib, yangi turdagi nutqiy: a) nominativ birlik (so‘z birikmasi); b) kommunikativ birlik (gap) hosil qilish usul va qoidalari – mohiyatan tilning barcha sath birliklari birgalikda, chambarchas bog‘lanishda ma’lum bir aniq moddiy shakl qabul qilgan holda voqelanishidir. Demak, tilning bevosita yashashi va fikr almashish, aloqa-aralashuv vositasi bo‘lishi (kommunikativ vazifani bajarishi) sintaksis bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli sintaksis, bir tomondan, tilshunoslikning eng asosiy va birlamchi tadqiq manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u murakkab nutqiy birliklar bilan aloqador bo‘lganligi bois ko‘pincha tadqiqotchi diqqatidan chetda qolib keladi. Chunki sintaktik qonun-qoidalarning bevosita voqelanishi bo‘lgan sintaktik hosilalarning tarkibiy qismlari, odatda, tilshunoslikning turli bo‘limlardagi– fonemalar (tovush va harflar) fonetika/fonologiya/grafikada, morfemalar (qo‘shimcha va so‘z shakllar) morfemika va morfologiyada, leksemalar (so‘zlar) leksikologiya va semasiologiya va stilistikada – sistema sifatida o‘rganiladi va sintaksis ularning soyasida qolib ketadi; substansiya ayrim qismlarining ajratilgan tavsifi butunlikni yaxlit ko‘rishga monelik qiladi. Shuning uchun aytish mumkinki, bir tomondan, tilshunoslikka bag‘ishlab hech bir tadqiqot sintaktik tahlildan xoli bo‘lolmaydi, ikkinchi tomondan, sintaksis tavsifiga bag‘ishlangan maxsus ishlar soni sanoqli. Tilshunoslik tarixidan ma’lumki, til sathlari birliklari orasida sintaktik hodisalarni alohida ajratish va o‘rganish boshqa sath birliklari tadqiqidan ancha orqada. Lingvistik bilimlar silsilasi taraqqiyotida Arastudan boshlab, XX asr boshlarigacha sintaktik qurilish tadqiqi fonetika, morfologiya va leksikani o‘rganish soyasida qolib keldi. Yevropada zamonaviy nazariy (ilmiy) tilshunoslik ibtidosi deb sanaladigan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (komparavistika)da ham, undan ancha oldin rivojlangan arab tilshunosligida ham, qadimgi hind

tilshunosligida ham tadqiqotchining diqqat markazida tilning tovushlari, soʻzning shakllari, soʻzning oʻzi turar edi. Shuning uchun turkiy tillarning oʻrganilish tarixi masalalari bilan chuqur shugʻullangan akademik A.N.Kononov turkiy tillar sintaksisini ilmiy ravishda izchil oʻrganish XX asrdan boshlanganligi haqida yozib, “bu davrdan oldingi ishlarda ayrim turkiy tillarning sintaksisi haqida uzoq-yuluq maʼlumotlargina berilganligi” ni alohida taʼkidlaydi. Bu fikr haqiqatga yaqin. Zero, turkiy tillarni ilmiy asoslarga oʻrganish oʻz ibtidosini XI asrdan(Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”asaridan) boshlab hozirga qadar uzluksiz davom etib kelayotganligiga qaramay, XI-XIX asrlarda sintaksis tahlili va talqiniga bagʻishlangan birorta ham maxsus ishni sanab oʻtolmaymiz. Vaholanki, fonetika, leksika, hatto morfologiya boʻyicha yuzlab tadqiqot va tavsiflar mavjud. Toʻgʻri, Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshgʻariy oʻz “Devon”ida oʻzining sintaksisga bagʻishlangan maxsus asari – “Javohiru–n–nahv fi lugʻoti–t–turk” (“Turkiy tillar grammatikasi (sintaksisi) javohirlari”) borligini alohida taʼkidlaydi. Bu asar hozircha maʼlum boʻlmasa ham, ayta olamizki, uning materiallari sintaksisning hozirgi zamonaviy talqinidan ancha yiroq va, asosan, arab tilshunosligi anʼanalariga muvofiq ravishda, morfologik shakllarning qoʻllanilish tavsifi bilan chegaralangan boʻlishi mumkin. Chunki, birinchidan, Mahmud Koshgʻariy oʻzi mansub boʻlgan arab tilshunosligi tamoyillaridan koʻp ham uzoqqa borolmas edi. Ikkinchidan, arab tilshunosligining oʻzida nahv termini ikki maʼnoda – “umuman grammatika” (yaʼni, morfologiya, soʻz yasalishi va sintaksis birgalikda) va “sintaksis” maʼnosida qoʻllaniladi. Uchinchidan, muallifning oʻzi “Devon”ning oʻzbekcha nashri 62-betida “Javohir...” ning mazmuni “birlik, koʻplik, oshirish, chogʻishtirish, kichraytirish, kelishiklar masalasi ” dan iboratligi haqida gapiradi. Bunday masalalar esa hozirgi kunda morfologiya doirasida oʻrganiladi. Shuning uchun faraz qilish mumkinki, Mahmud Koshgʻariy ikki asarini arab tilshunosligida ajratilgan tilshunoslikning ikki katta qismiga – “Javohir...” ni grammatika tavsifiga, “Devon”ni esa lugʻat va soʻz yasalishi masalalariga – bagʻishlagan.

Komparativistika va yosh grammatiklarning qiyosiy-tarixiy tilshunosligida ham sintaksis muammolari “ikkinchi darajali” tadqiq manbai edi; bu yo‘nalishlarda so‘z va qo‘shimchalar ifoda tomonining taraqqiyoti diqqat markazida edi. Shu sababli Yevropa (asosan, rus) turkiyshunoslarining XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi tavsifiy ishlarida ham sintaksis bo‘yicha ma’lumotlar umuman yo‘q, yoki morfologiya bo‘limiga singdirib yuborilgan. Shuning uchun o‘zbek tili sintaksisi bo‘yicha ilk maxsus tavsif sifatida biz hozircha Abdurauf Fitratning birinchi nashri 1925-yilda amalga oshirilgan “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba. Ikkinchi kitob - Nahv” asarini tilga ola olamiz, xolos. Haqiqatan ham, bu ish o‘zbek tili sintaktik qurilishining izchil tahlilini boshlab beruvchi ham tadqiqot, ham tavsif – o‘quv qo‘llanmasidir. Tilshunos A.Nurmonov “ hali o‘zbek tili sintaksisining mundarijasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar izga solinmagan bir davrda bu asarning vujudga kelishi o‘zbek tilshunosligi tarixi uchun katta voqea edi,” – deb unga yuksak baho berganida to‘la-to‘kis haqdir. Fitrat o‘zbek sintaksisi talqiniga so‘z uyushmasi (so‘z birikmasi, so‘z qo‘shumi), gap, uning asosiy qismlarini atovchi kesim, ega, to‘ldirgich (gap tarkibidagi ega va kesimdan boshqa bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar), kirish so‘z, turush belgilari (tinish belgilari) kabi o‘nlab atama va tushunchalarni olib kirdi. Olim ilk qadamdanoq turkiy tillar (jumladan, o‘zbek tili) sintaksisining G‘arbiy-Yevropa tillari sintaktik qurilishidan tub farqlarini: a) kesimning gap qurilishida alohida mavqe egallashini–“so‘z qo‘shilmasini gapga aylantiradigan” qism ekanligini; b) gap va so‘z birikmalari tarkibida tobe–hokim tartibi mutlaqligini ilg‘ay va sharhlay oldi.

XX asrning o‘rtalarida ustoz Ayyub G‘ulomov ommalashtirgan so‘z birikmalarida hokim bo‘lak, gap qurilishida ega yetakchiligi haqidagi talqini asosida o‘zbek tili sintaksisining alohida sohasi – qo‘shma gap sintaksisi tadqiqiga alohida diqqat qaratildi. Akademiklar G‘anijon Abdurahmonov va Mazluma Asqarovalarning doktorlik dissertatsiyalari (1960- va 1963-yillar), qator monografiya, risola va o‘quv qo‘llanmalarida, juda ko‘p ilmiy maqolalarida, o‘nlab shogird va izdoshlarining dissertatsion ishlarida bu masala tadqiq, tahlil va targ‘ib

manbai bo‘ldi. Bu talqinlarda gap qurilishining talqini markazida ega turganligi va ega–kesim munosabati mantiqiy predikatsiya (subyekt–predikat) aloqasi bilan deyarli tenglashtirilganligi sababli Salimjon kelgach/kelgandan keyin/kelishi bilan axborot berdi, Salimjon o‘qidi, yozdi turidagi qurilmalar bir xil egali bo‘lganligi bois sodda, ikki va undan ortiq eksplitsit (gap qurilishida moddiy shaklda ifodalangan) egali (aniqrog‘i, ega emas, balki subyektli, bajaruvchili, faolli) qurilmalar (Salimjon kelgach/kelgandan keyin/kelishi bilan, u/Rahimjon axborot berdi, Salimjon o‘qidi, u/Rahimjon yozdi.) qo‘shma gaplar sifatida baholandi. Mana shu metodologik tamoyillar asosida qo‘shma gapning bog‘langan, ergash gapli, bog‘lovchisiz, murakkablashgan kabi turlari ajratildi.

Keyingi yillarda sodda va qo‘shma gap qurilishi, so‘z birikmalari va ularning ko‘rinishlari talqini bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p juz‘iy masalalar F.Abdullayev, G‘.Abdurahmonov, S.Solixo‘jayeva, E.Shodmonov, H.Abdullayev kabi olimlar tadqiqotlarida muhokama etildi, muayyanlashtirildi. Pirovardida, o‘tgan asrning 70-yillariga kelib, formal tahlil usuliga tayangan o‘zbek sintaktik nazariyasi va o‘zbek tili sintaktik qurilishining talqini tugal shakllandi, 1976- yilda nashr etilgan ilmiy grammatikasida<sup>19</sup> umumlashtirildi, formal tahlil yutuqlari asosida o‘zbek tili sintaktik qurilishining boshqa tadqiq metodlari, jumladan, sistem-struktur tahlil usullari bilan chuqurlashtirish, formal tavsif asosida qator ustqurma tahlillarda tilimiz sintaktik qurilishidagi turli-tuman paradigmalarni va paradigmatic munosabatlarni ochish ishlariga zamin hozirlandi.

Mana shunday ustqurma tahlillardan biri gapning aktual bo‘linishi va gap qurilishining uslubiy xususiyatlarini o‘rganish bo‘ldi. Bu yo‘nalishda A.Safoyev, R.Qo‘ng‘urov, S.Karimov, J.Omonturdiyev, A.Mamajonov, A.Abdusaidov, R.Abdusamatov, A.Hayitmetov kabi olimlar ishlab, jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritdilar, o‘zbek matn lingvistikasi va uslubiyati rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Formal sintaktik tavsif natijalariga tayanib, o‘zbek tili sintaksisi bo‘yicha amalga oshirilgan va katta ilmiy samaralar bergan yo‘nalishlar sifatida sistem-struktural

---

<sup>19</sup> (Ўзбек тили грамматикаси. 2-том. Синтаксис. – Т.: Фан, 1976)

tahlil usullariga tayanib olib borilgan semantik sintaksis va valentlik bo'yicha tadqiqotlarni alohida sanab o'tish lozim. Bu sohalarda N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Berdialiyev, D.Lutfullayeva, A.Ahmedov, I.Qo'chqortoyev, R.Rasulov, M.Qurbonova, A.A.Salkalamanidze, S.Sultonsaidova, S.Muhamedova, H.Usmonova kabi olimlar erishgan yutuqlarning ilmiy salohiyati o'zbek tilshunosligidagina emas, slavistika va germanistika – umuman til qurilishi tahlil nazariyasida o'ziga xos ahamiyatga molikligi, mustaqilligi bilan ajralib turadi.

Substansial tahlil yo'nalishida tilshunoslikning eng asosiy tushunchalari til-lison-meyor-nutq munosabati quyidagicha tushuniladi: "Til – sof insoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi eng muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy bevosita va bilvosita kommunikatsiya vositasidir. Til lison~me'yor~nutqning dialektik butunligidan iboratdir. Unda bosh ichki ziddiyat atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarning dialektik birligidadir"<sup>20</sup>. Bunda tilning lison, me'yor va nutqni o'zida mujassamlashtirgan nisbatan mukammal va yangicha ta'rifi o'z aksini topgan. Ta'rifni tilga berilgan milliy ta'rif sifatida baholash mumkin. Imkoniyat, tafakkurni shakllantirish, bilimni saqlash, axborotni uzatish vositasi, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlilik kabi belgilar ta'rifni shakllantiruvchi tayanch unsurlardir.

Lisoniy imkoniyatning subyektiv va moddiy voqelanishi nutq hisoblanadi. "Nutq lisonning me'yor elagidan o'tgan muayyan moddiy (yozma, og'zaki, tasviriy (imo-ishora, signal v.h.) shakllaridan birida) voqelanishidir". Boshqa lisoniy birliklarda bo'lgani kabi sintaktik birliklarning lisoniy mohiyatini ochishda ham "subtansiallik", "ichki ziddiyatlik", "ko'p qatorlilik", "oraliq uchinching mutlaqligi" tamoyillari tahlilning asosiy tushunchalari hisoblanadi. Bu tamoyillar formal-funksional (substansial) tahlil yo'nalishining metodologik asosi tilshunos

---

<sup>20</sup> Sulaymonova, G. S. (2016). Til insoniy muloqot vositasi sifatida. S. K. Jalilovada (Tahr.), Fundamental tadqiqotlar: muammolar va yechimlar: IV Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari (318-321-betlar). Qostanay davlat pedagogika universiteti.

H.Ne'matov, B.Mengliyev va M.Qurbonovalar tadqiqotlarida bayon etilgan.

a. **Substansiallik.** Lisoniy birlik nutqda voqelantiruvchi barcha ma'no va vazifalarini o'zida ontologik mujassamlashtirgan, yashirgan deb olinadi. Nutqda hech bir narsa yaratilmaydi, balki lisoniy birlikdagi imkoniyat faqat yuzaga chiqariladi, xolos. Shuning uchun tilshunoslik oldida lisoniy birlik voqelanishidagi nutqiy alohidaliklarni umumiy lisoniy ma'noga birlashtirish hamda lisoniy imkoniyat sifatida ongda va lisoniy tizimda mavjud bo'lgan bu ma'noni nutqda muayyan ko'rinishlarda voqelantirish yo'llarini o'rganish vazifasi turadi.

b. **Ichki ziddiyatlik.** Lisoniy birlikning umumiy lisoniy ma'nosi ontologik ziddiyatli, qarama-qarshilikli - turli tabiatli tomonlarning birlashishidan iborat bo'lgan dialektik butunlikdir. U hamisha serqirradir.

c. **Ko'p qatorlilik.** Lisoniy birlik ontologik ziddiyatli tabiati bilan boshqa lisoniy birliklar bilan bir necha oppozitiv qatorga (munosabatlarga) - har bir qirradi bilan alohida-alohida siralarga - paradigmalarga kiradi. Shuning uchun uning umumiy lisoniy ma'nosi bir necha oppozitiv siralardagi (paradigmalardagi) differensial belgilarining yig'indisi, mohiyatiga ega bo'ladi.

d. **Oraliq uchinchi.** Lisoniy birliklardagi qarama-qarshi ma'no va vazifalar, paradigmalardagi bir-birini inkor etuvchi birliklar zid tomonlarni o'z ontologik tabiatida birlashtiruvchi hodisa (birlik)da birlashadi va ikki qarama-qarshilik orasida birlashtiruvchi vosita – oraliq uchinchi mavqeida bo'ladi. Tabiatan istagan lisoniy birlik oraliq uchinchi mohiyatiga egadir”.

Sintaksisda lisoniy birlikning asosiy turlari qolip (qolip)lar ajratilib, qoliplarning morfologik (lug'aviy shakllar yasash, sintaktik shakllar yasash), derivatsion (sodda va qo'shma so'z yasash), sintaktik (nominativ birliklar – so'z birikmalari hosil qilish qoliplari, kommunikativ birliklar – gap hosil qilish qoliplari) turlari farqlanadi. Umuman olganda, o'zbek tilshunosligida shakllangan sintaktik nazariyalar o'zbek tili grammatik qurilishini turli tomondan o'rganib, uning mohiyatini ochish borasida o'z tadqiq metodologiyasi va usullari asosida ulkan ishlarni amalga oshirdilar va oshirmoqda. Qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar

garchi ziddiyatli bo'lsa-da, ular obyektiv serqirralik va ziddiyatlilik tabiatiga ega bo'lgan sintaktik qurilishning turli tomonlarini yoritishi nuqtai nazaridan bir-birini to'ldiruvchilar sifatida o'ta qimmatli. O'zbek tili sintaktik qurilishi mohiyatini idrok etish turli sintaktik yo'nalishlarga xos xulosalarni umumlashtirish asosidagina amalga oshiriladi.

Fonetika, leksika va morfologiyada bo'lgani kabi sintaksisda ham lisoniy va nutqiy jihat farqlanadi. Ma'lumki, lisoniy hodisa bevosita kuzatishda berilmaganlik (moddiylikdan xolilik), miqdoran cheklilik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik va majburiylik belgisiga ega, u bevosita kuzatishda berilganlik, miqdoriy cheklanmaganlik, betakrorlik, individuallik, ixtiyoriylik sifatiga ega bo'lgan nutqiy hodisaga qarama-qarshi turadi. Nutqiy sintaktik birlik sifatida nutqda qo'llanadigan, sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan, o'qish, yozish, aytish, eshitish mumkin bo'lgan so'z birikmasi va gap tushuniladi. Lisoniy sintaktik birlik esa so'z birikmasi va gap hosil qilish qolipi. Lisoniy sathga tegishli bo'lganligi uchun ularni lisoniy sintaktik qolip (qisqacha LSQ) deb ataymiz. LSQ g'isht qolipiga o'xshaydi. Inson ongida ham so'zlash, nutqni shakllantirish maqsadida leksemalarni so'z birikmasi shakliga keltirish, gap hosil qilish qolipi mavjud. Ular LSQ, model, konstruksiya, qurilma deb nomlansa-da, aslida bir tushunchani ifodalaydi. Masalan, kitobni o'qimoq kabi cheksiz birikmani chiqaradigan  $ot_{tushum}$  kelishi + fe'l so'z birikmasi qolipi qanday nomlanmasin, uning mohiyatiga ta'sir qilmaydi. Qolip va nutqiy hosila (so'z birikmasi va gap)lar dialektik birlikda. Qolip nutqiy hosilasiz o'lik va jonsiz, nutqiy hosila esa qolipsiz bo'lishi mumkin emas. Quyida LSQ va nutqiy so'z birikmasi hamda gapning bir-biriga o'xshamaydigan, farqli xususiyatini bayon etamiz.

1. LSQning moddiylikdan xoliligi va nutqiy hosilaning moddiyligi. LSQ jamiyat a'zolari ongida mavjud bo'lib, kishilarning erkin birikma hosil qilish ko'nikmasi sifatida uzoq davr mobaynida shakllanadi. Bu ko'nikma bo'lmasa, inson birikma hosil qila olmaydi. Bunga quyidagi dalil asosida amin bo'lishimiz mumkin. Deylik, biror tilni, masalan, ingliz tilini o'rganmoqchi bo'lgan kishi



ongida bu tilga xos birikma tuzish ko'nikmasi – LSQ shakllanmagan bo'lsa, masalan, o'zbekcha kitob va o'qimoq so'zining ingliz tilidagi a book va to read muqobilini bilsa-da, birikma hosil qila olmaydi yoxud o'zbek tiliga xos ot<sup>tushum</sup> kelishigi + fe'l qolipi asosida *kitobni o'qimoq* deya oladi, xolos. Ingliz tilida esa *kitobni o'qimoq* birikmasini hosil qiluvchi LSQ to V+ the N ko'rinishida bo'lib, undan *to read the book, to write the letter* kabi hosila paydo bo'ladi. Ma'lum bo'ladiki, LSQ jamiyat a'zolari ongida yashaydi va moddiy qiyofaga ega emas. Uni sezgi a'zosi asosida bilib bo'lmaydi. Qolipdan chiqqan nutqiy hosilani esa aytish, eshitish, yozish va o'qish mumkin ekan, bu ularning moddiylikka egaligini ko'rsatadi .

2. LSQning ijtimoiyligi va nutqiy birikmaning individualligi. LSQ bir kishi tomonidan emas, balki shu tilda so'zlashuvchi jamiyatning barcha a'zolari tomonidan uzoq vaqt davomida shakllantirilgan. Shuningdek, ular bir kishi uchun emas, balki jamiyatning shu tilda so'zlashuvchi barcha a'zosi uchun birday xizmat qiladi. Bu LSQning ijtimoiy tabiatga egaligini ko'rsatadi. LSQ asosida vujudga keluvchi nutqiy hosila har bir kishi nutqida o'ziga xos. Masalan, *kitobni o'qimoq* so'z birikmasi har bir so'zlovchi nutqida o'zgacha. Bu nutqiy hosilaning har biri kimning nutqiga tegishliligi, aytilgan o'rni va zamoni, aytilish maqsadi va sharoiti kabi qator belgisi bilan farqlanadi. Hatto bir kishi nutqida aytilgan ikkita (*kitobni o'qimoq* (1) va *kitobni o'qimoq*(2)) so'z birikmasidan ikkinchisi birinchisining aynan takrori emas. Zero, bu nutqiy hosilalar hech bo'lmaganda, so'zlovchi shaxs, nutq vaziyati, zamoni bilan farqlanadi. Nutqiy hosilaning individualligi (alohidaligi)ni shunday tushunmoq lozim.

3. LSQning takrorlanuvchanligi va nutqiy hosilaning betakrorligi. Qolip har bir g'ishta o'z izini qoldiraverganligi kabi LSQ ham har bir so'z birikmasi va gapda takrorlanaveradi. Lekin ikkinchi g'isht birinchi g'ishtning takrori bo'lmaganligi kabi, nutqiy hosilaga ham betakrorlik xos. Aslida borliqda bevosita kuzatishda berilgan birorta hodisada takroriylik yo'q. Kesilgan daraxtni qayta ekib bo'lmaganidek, qolipdan chiqqan so'z birikmasini takror aytish, yozish mumkin

emas. Ikkinchi bor aytilgan yoki yozilgandek tuyulgan soʻz birikmasi, aslida, boshqa hosila.

4. LSQning cheklanganligi va nutqiy hosilaning cheksizligi. Gʻisht qolipi bitta, undan chiqqan gʻisht hisobsiz. Shuningdek, deydik, ot<sup>tushum</sup> kelishigi+feʼl qolipi bitta boʻlib, undan kitobni oʻqimoq, qalamni sotmoq kabi ming-minglab soʻz birikmasini hosil qilish mumkin. Bugungi kunda oʻzbek tilida soʻz birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi aniqlangan (ular haqida «Soʻz birikmasi» faslida bahs yuritiladi). Bu qoliplardan chiqqan, chiqayotgan va chiqadigan nutqiy soʻz birikmasi miqdorini tasavvur ham qilib boʻlmaydi. Gap qolipi va ularning hosilalari ham xuddi shunday.

5. LSQning majburiyligi va nutqiy hosilaning ixtiyoriyligi. Oʻzbek tilida soʻzlashuvchi kishi nutq jarayonida soʻz birikmasi tuzishga ehtiyoj sezar ekan, bunda LSQning yuqorida aytilgan 18 ta turidan foydalanishga majbur. Ularning LSQni oʻzgartirishiga, yangi-yangi LSQ tuzishiga til «qonunchiligi» tomonidan yoʻl qoʻyilmaydi. Biroq nutqiy soʻz birikmasi yaratishda soʻzlovchi erkin hisoblanadi.

## 1.2. Valentlik tushunchasi ta’rifi va valentlik nazariyasining rivojlanishi

Agar nazar tashlasak, bu davrga borib taqaladi.

Ilmiy adabiyotlarda valentlik tushunchasini tilshunoslikka birinchi marta kim kiritganligi haqida bir-biriga zid bir qancha fikrlarni uchratish mumkin. Tilshunoslikda valentlik tushunchasini olib kirgan olim sifatida nemis tilshunosi K. Byuler, fransuz tilshunosi L. Tenier yoki A.V.de Grootning ustuvorligini tan olgan tilshunoslar kabi Rus tilshunosi S.D.Katsnelsonni bu kontseptsiyaning “muallifi” deb hisoblaydiganlar ham bor. V.G.Gak valentlik tushunchasini birinchi marta S. D. Katsnelson 1948-yil 2-sonli Leningrad davlat universiteti xabarnomasida chop etilgan “Grammatik kategoriya haqida” asarida kiritgan, deb hisoblaydi<sup>21</sup>.

Sovet va G‘arbiy Yevropa tilshunosligidagi valentlik tushunchasini solishtirib, V.G.Gak shuni ta’kidlaydiki, G‘arbiy Yevropa tilshunosligidan farqli o‘laroq, sovet tilshunosligida valentlikning kengroq tushunchasi ishlab chiqilgan bo‘lib, valentlik atamasi fe’llarning mos kelishini bildirish uchun ishlatilgan va fe’lning o‘ziga biriktira oladigan aktantlar sonini aniqlagan. Valentlikning bunday kengroq tushunchasi S.D.Katsnelsonda ham mavjud bo‘lib, u valentlikni boshqa darajadagi so‘zlar va birliklarning umumiy birikma qobiliyati deb hisoblaydi. Valentlik tushunchasining boshqa gap bo‘laklariga (ot, sifatlar) nisbatan qo‘llanilishi haqida biz yuqorida aytib o‘tgan edik. S.D.Katsnelson esa hatto qo‘shma gap va yuklamalarning valentligi haqida gapirgani<sup>22</sup> qiziq tuyuladi, ammo bu fikr uning ilmiy ishlarida batafsil ishlab chiqilmagan.

“Valentlik” atamasining izohi va talqinini topish maqsadida biz murojaat qilgan navbatdagi manba D.E.Rozental va M.A.Telenkovalarning “Lingvistik atamalar lug‘ati”dir. Ushbu lug‘atda valentlik “so‘zning boshqa so‘zlar bilan iboralarga kirish qobiliyati” deb ta’riflangan<sup>23</sup>.

---

<sup>21</sup> ГАК, В. Г. Валентность. In Языкознание. Большой энциклопедический словарь. Москва: «Большая Российская энциклопедия», 1998, с. 79–80.

<sup>22</sup> КАЦНЕЛЬСОН, С. Д. К понятию типов валентности. Вопросы языкознания 1987, № 3, с. 20–32.

<sup>23</sup> РОЗЕНТАЛЬ, Д. Э. – ТЕЛЕНКОВА, М. А. Словарь-справочник лингвистических терминов. Пособие для учителей. Москва: «Просвещение», 1985.

Kasatkin, Klobukov va Lekant valentlik tushunchasini izohlar ekan, “faqat muayyan rollarni bajaradigan ma’lum miqdordagi majburiy ishtirokchilarga ega bo‘lgan vaziyatlarni (holatni) bildiruvchi so‘zlargina valentlikka ega bo‘lishini” eslatib o‘tadilar<sup>24</sup>. Aksariyat hollarda bunday so‘zlar fe’l, lekin bunday so‘zlarga fe’llardan tashqari otlar, sifatlar, qo‘shimchalar ham kirishi mumkin.

A.K.Karpovning “Lingvistik atama va tushunchalarning o‘quv lug‘ati”da valentlik turli darajadagi birliklarning umumiy moslik qobiliyatlari deb, semantik valentlik esa quyidagicha tavsiflanadi: “So‘zning boshqa so‘zlarning ma’lum doirasi bilan ma’no jihatdan birikish, boshqa so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishish xususiyati”<sup>25</sup> (Karpov 2002: 29). Lingvistik lug‘atda sintaktik valentlik haqida eslatib o‘tilmagan, faqat shuni ta’kidlash mumkinki, valentlik atamasi ko‘pincha leksik, grammatik va morfemik derivativ darajalar birliklarining potentsial xususiyatlarini belgilash uchun ishlatiladi.

Shuningdek, N.V.Vasilevaning (1995: 20) “Lingvistik atamalarning qisqacha lug‘ati”da valentlik so‘zning boshqa so‘zlar bilan sintaktik (semantik va formal) munosabatga kirishish qobiliyati (semantik moslik), shuningdek, rasmiy muvofiqligi (o‘ng va chap) keltiriladi<sup>26</sup>.

Nemis ma'lumotnomasida *Kleine Enzyklopädie. Deutsche Sprache* (Fleischer 1993: 87) valentlik bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni topish mumkin: ““Bu atama fransuz tilshunosi L.Tenier tomonidan kimyodan olingan va tilshunoslikka o‘tgan. U birinchi marta sintaksisda qo‘llanilgan va turli fe’llarning o‘z-o‘zidan har xil sonli bo‘laklarni bog‘lashini bildirgan. Shunday qilib, valentlik dastlab fe’l so‘z turkumining (sintaktik) xususiyati sifatida tushunilgan. Fe’lga qo‘shilgan gap bo‘laklari o‘yinchilar yoki aktantlar deb atalib, (sintaktik) majburiy va (sintaktik) ixtiyoriy ko‘makchilarga ajratilgan. Gapning fe’lga bog‘lanmagan

---

<sup>24</sup> КАСАТКИН, Л. Л. – КЛОБУКОВ, Е. В. – ЛЕКАНТ, П. А. Краткий справочник по современному русскому языку. Москва: «Высшая школа», 1991.

<sup>25</sup> КАРПОВ, А. К. – ФРОЛОВ, Н. К. – ШУРЫГИН, Н. А. Учебный словарь лингвистических терминов и понятий: Учебное пособие. Нижневартовск: Изд-во Нижневартовского педагогического института, 2002.

<sup>26</sup> ВАСИЛЬЕВА, Н. В. – ВИНОГРАДОВ, В. В. – ШАХНАРОВИЧ, А. М. Краткий словарь лингвистических терминов. Москва: «Русский язык», 1995.

bo‘laklari vaziyat bildirishnomalari (aylanma gaplar) deyilgan”<sup>27</sup>. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, nemis tilshunosligi valentlik atamasini ilmiy foydalanishga fransuz tilshunosi L.Tenier kiritgan degan tushunchaga amal qiladi. Mualliflarning ta’kidlashicha, asta-sekin valentlik nafaqat sintaktik xususiyat, balki semantik xususiyat sifatida ham ko‘rib chiqila boshlandi.

S. D. Katsnelson fikri<sup>28</sup>ga qo‘shilgan holda, biz valentlikni so‘zning ma’nosi bilan ifodalangan yoki unda bilvosita mavjud bo‘lgan ko‘rsatma va uni jumladagi ma’lum turdagi so‘zlar bilan to‘ldirish zarurati sifatida tushunamiz. Shu nuqtai nazardan, valentlik barcha to‘liq baholi so‘zlarning belgisi emas, balki faqat o‘z-o‘zidan gapning to‘liqsizligi hissini beradigan va gapda to‘ldirishni talab qiladigan so‘zlarning belgisidir. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tilshunos olimlar 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab valentlikni o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratib, fe’lning valentligi nazariyasiga, bir yoki bir nechta fe’llarning valentlik xossalariга oid bir nechta tillarda ko‘plab ishlar bajarilgan. ( Katsnelson 1972, 1987, Tenier 1988, Apresyan 1995, 2006 2007, Mu-Khin 1987, Melchuk 1999, Vsevolodova 2000, Paducheva 1974, 1987, Tenier 1992, 62, 1901 Palay-Itevevah 1997, Panevova 1998, 1999B, 1999, STANDANA - Xelyuight 1981, Strovag - Karligel, Straabova-Lopatkova - Bakovatsky 2002, WOTJAK 2000 , Lopatkova – Panevova 2000, Tabokrtsky 2002).

Yuqorida valentlik nazariyasining paydo bo‘lishi haqida ma’lumot berib o‘tgan bo‘lsak, endi jahon tilshunosligida valentlik nazariyasining rivojlanishi haqida ham qisqacha ma’lumot keltirsak.

G‘arbiy Yevropa tilshunosligida struktur sintaksis va valentlik nazariyasining ilk vakillaridan biri eng ko‘zga ko‘ringan fransuz tilshunosi Lyusen Tenierdir. Uning ko‘p qirrali asari “Sintaksisning tuzilish asoslari” vafotidan atigi besh yil o‘tib, 1959-yilda nashr etilgan va shuni ta’kidlash kerakki, bu kitob boshida unchalik muvaffaqiyatli bo‘lmagan. Bunga unda keltirilgan qarashlar va nazariyaning o‘sha davrda jahon tilshunosligida asosiy rol o‘ynagan yo‘nalish

---

<sup>27</sup> FLEISCHER, W. Kleine Enzyklopädie. Deutsche Sprache. Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1983.

<sup>28</sup> КАЦНЕЛЬСОН, С. Д. К понятию типов валентности. Вопросы языкознания 1987, № 3, с. 20–32.

qarashlaridan, ya'ni Amerika strukturalizmi g'oyalaridan keskin farq qilishi sabab bo'lgan.

V.G.Gak (1988: 5) «Struktura sintaksis asoslari»ning rus tiliga tarjima maqolasida<sup>29</sup> ta'kidlaganidek, J.Furk L.Tenier monografiyasini X.Andersen ertagidagi xunuk o'rdakcha bilan solishtirgan. V.G.Gak xunuk o'rdakning taqdiri kabi L.Tenier ijodining taqdiri ham kutilmagan bo'lganiga e'tibor qaratadi. Bu asar dastlab tilshunoslik doiralarida qattiq tanqid qilingan bo'lsa-da, keyingi yillarda tilshunos olimlar tomonidan ko'p murojaat qilinib, undagi fikrlar tobora ko'proq e'tiborni tortdi. L.Tenierning fikrlari bir necha o'n yillar o'tgach ishlab chiqilgan semantik sintaksis uchun asos bo'ldi va L. Tenier nazariyasi, masalan, bog'liqlik grammatikasi, valentlik nazariyasi va hol grammatikasi kabi lingvistik sohalarning rivojlanishi uchun asos bo'ldi<sup>30</sup>.

L.Tenier sintaktik bog'lanish haqida so'z yuritar ekan, "Gap qurish deganda so'zlarning amorf massasiga ulanish, ular o'rtasida sintaktik bog'lanishlar majmuasini o'rnatish demakdir", deb yozadi<sup>31</sup>. Yadroni elementar sintaktik birlik sifatida ko'rib, u unda "gapning tuzilishini yaratishga kiradigan qurilish blokining bir turini yoki jumlaning tirik organizmi asosidagi hujayrani" ko'radi<sup>32</sup>.

Valentlik masalasi bilan shug'ullangan rus tilshunoslaridan birinchisi S.D.Katsnelson (1907 - 1985) bo'lishi mumkin, u o'z asarlarida bir qator masalalarga e'tibor qaratadi: til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar muammolari, ma'no nazariyasi, morfologiya va sintaksis nazariyasi, psixolingvistika masalalari, bolalar nutqini o'rganish, hind-evropa va nemisshunoslik sohasidagi qiyosiy tarixiy tilshunoslik muammolari. Uning kontseptsiyasiga ko'ra, "predikatning gapda amalga oshiriladigan valentlik xususiyatlari "bo'shliqlar"ni to'ldirish uchun "joylar" shaklida predikatning o'ziga beriladi<sup>33</sup>. Tadqiqodchi valentlikni so'zning

---

<sup>29</sup> ГАК, В. Г. Л. Теньер и его структурный синтаксис (вступительная статья). In Основы структурного синтаксиса. Москва: Прогресс, 1988, с. 5–21.

<sup>30</sup> ФИЛЛМОР, Ч. Дело о падеже. In Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X. Лингвистическая семантика. Москва: «Прогресс», 1981, с. 369–496.

<sup>31</sup> ТЕНЬЕР, Л. Основы структурного синтаксиса. Москва: «Прогресс», 1988. С 23

<sup>32</sup> ТЕНЬЕР, Л. Основы структурного синтаксиса. Москва: «Прогресс», 1988. С 56

<sup>33</sup> КАЦНЭЛЬСОН, С. Д. Типология языка и речевое мышление. Ленинград: «Наука», 1972. С 177

lug‘aviy ma‘nosidan iborat bo‘lgan sintaktik potentsial, boshqa to‘liq baholi so‘zni o‘ziga biriktirish qobiliyati deb tushunadi. U valentlikni “so‘zning ma‘nosi bilan ifodalangan yoki unda bilvosita mavjud bo‘lgan, uni jumladagi ma‘lum turdagi so‘zlar bilan to‘ldirish zaruriyatiga ishora” deb ta‘riflaydi<sup>34</sup>.

Semantika haqida gapirganda, eng muhim vakili Moskva semantik maktabidan bo‘lgan Yu. D. Apresyanni eslatib o‘tmaslik mumkin emas. Leksikografik ish va rus tilini yaxlit tavsiflashga urinish bilan bog‘liq holda, Yu. D. Apresyan nazariy semantika va leksikografiya nuqtai nazaridan semantik valentlik e‘tiborini tortdi. U “Leksik semantika” asarida “semantik valentliklar so‘zning leksik ma‘nosidan bevosita kelib chiqadi, uni boshqalardan farq qiluvchi o‘ziga xos leksik birlik” sifatida tavsiflaydi. U semantik valentlik (aktantlar) bilan bog‘liqlikning boshqa turlarini farqlash zarurligiga e‘tibor qaratib, ko‘pchilik so‘zlarning valentligi kam bo‘lishini va ularning morfologik ifodasi ko‘pincha idiomatik bo‘lishini hamda bu valentlik qaysi so‘zga tegishli ekanligiga ham bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Yu.D.Apresyan semantik valentliklarni boshqa bog‘liqlik turlari bilan solishtirib, boshqa bog‘liqliklarning morfologik tuzilishi ko‘proq yoki kamroq standart bo‘lib, asosan ma‘no bilan emas, balki tegishli tobe bog‘lanish mazmuni bilan belgilanishini ta‘kidlaydi. Lug‘atlar tuzish va lug‘atni o‘rganishda valentlik nazariyasining asosiy qoidalarini amaliyotda qo‘llagan holda, Yu.D. Apresyan bundan keyin lug‘atlar va ma‘lumotnomalarda so‘zning valentligi to‘g‘risida ma‘lumotlarni taqdim etish zarurligini ta‘kidlab, “sintaktik zonasi” deb ta‘kidlaydi. Lug‘at yozuvi so‘zning semantik valentliklarini tavsiflashga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak: ular ko‘p emas va shuning uchun ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri lug‘at yozuvida tasvirlash mumkin; ular idiomatik tarzda ifodalanishi mumkin va shuning uchun ularni ushbu so‘z bilan aniq tasvirlash kerak. Boshqa tomondan, boshqa turdagi bog‘liqliklarning morfologik ifodalanishining noidiomatik tabiati ularni alohida so‘zlarning lug‘at yozuvlarida tasvirlashni

---

<sup>34</sup> КАЦНЕЛЬСОН, С. Д. К понятию типов валентности. Вопросы языкознания 1987, № 3, с. 21

keraksiz qiladi va ularning ko‘pligi buni amalda imkonsiz qiladi<sup>35</sup>. Yu.D.Apresyan o‘zining leksik-sintaktik yondashuvidan an’anaviy yondashuv o‘rtasidagi farq fe’l leksemalarning boshqaruv xossalarini o‘rnatishning tizimli asoslarini topishga urinishda ekanligini ta’kidlaydi. Fe’llar birma-bir emas, balki katta sinflar va kichik sinflarning bir qismi sifatida ko‘rib chiqildi. Og‘zaki leksemalarni bir turkum yoki turkumga birlashtirishga ularning bir xil sintaktik konstruksiyalarda qo‘llanishi va bir xil sintaktik o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon berishi asos bo‘lgan.

Shunday qilib, valentlik hodisasi o‘rganilish jarayoni chuqur tadqiqiy izlanishlar natijasida ochib berilgan bo‘lib, uning xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlarini keyingi boblarda keltirib o‘tamiz.

### **1.3. Valentlik mohiyati va sintaktik qurilma tuzilishini belgilashdagi ahamiyati**

Til hodisalariga substansial yondashuv tilshunoslikda valentlik qonuniyatlarining o‘rganilishiga turtki bo‘ldi. Til hodisalarining lisoniy mohiyati o‘rganilar ekan, til birliklarining birikuv imkoniyatlariga ega bo‘lishi va bu imkoniyat tasodifiy emasligi haqida xulosalar bildirila boshlandi. Shu tariqa tilshunoslikka valentlik, valentlik nazariyasi, lisoniy valentlik va nutqiy valentlik kabi qator atamalar kirib kela boshladi.

*Valentlik* atamasi va tushunchasi ilk bor kimyo fanida qo‘llanila boshlanib, 1853-yilda ingliz kimyogari Eduard Frankeld tomonidan olib kirildi. U Kimyo fanida *biror element atomining boshqa element atomlari bilan birika olish qobiliyati* deb tushuniladi<sup>36</sup>. Valentlik – elementning muhim miqdoriy tavsifi<sup>37</sup>. Chunonchi, rus kimyogari A.M.Butlerovning moddaning kimyoviy tuzilish nazariyasini kashf qilishida valentlik nazariyasi muhim o‘rin tutdi. D.I.Mendeleyev kimyoviy elementlarning davriy sistemasidagi o‘rni bilan valentlik o‘rtasida

---

<sup>35</sup> АПРЕСЯН, Ю. Д. Избранные труды, том I. Лексическая семантика. Москва: Школа «Яз. р. культуры», 1995. С 121


<sup>36</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1-жилд.-Москва: Русский язык, 1981. -Б. 172

<sup>37</sup> Аскарлов И. ва б. Кимё. 7-синф дарслиги. - Тошкент: Шарқ, 2005. -Б. 31




bog‘lanish borligini isbotladi hamda fanga *o‘zgaruvchan valentlik* tushunchasini kiritdi.

*Valentlik* so‘zi lotincha “valetia” leksemasidan olingan bo‘lib, “kuch” degan ma‘noni anglatadi. Fizika fanidan ma‘lumki, kuch – o‘zaro ta‘sir va bog‘lanish demakdir. Kimyo fanida “bir valentli”, “ikki valentli”, “ko‘p valentli” kabi atamalar ham ishlatiladi. Kimyoda valentlik(lar) sonini aniqlashda ma‘lum bir element (bir) atomining modda (molekula) tarkibida vodorodning (H) necha atomi bilan birikishi nazarda tutiladi. Chunonchi, H<sub>2</sub>O (suv) molekulasida kislorod atomi (O) ikki valentli bo‘lib, u vodorod (H) atomining ikkitasi bilan birikkan. Demak, suv formulasida kislorod ikki valentli (H<sub>2</sub>)dir:



Ammiak tarkibidagi (NH<sub>3</sub>) azot (N) uch valentlidir, chunki azotning bir atomi vodorodning (H) uch atomi bilan birikishni talab etadi:



Ushbu tushuncha tilshunoslikda lisoniy birliklarning hali yuzaga chiqmagan birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyatlari sifatida qaraluvchi lisoniy hodisaga nisbatan qo‘llanildi. Til birliklarining o‘zaro birikish xususiyatlari tilshunoslikda endi tadqiq qilinayotgan masalalardan emas. Valentlik nazariyasining o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlari, bu nazariya ildizlarining uzoq tarixga egaligi, bu sohada izlanish olib borgan olimlarning qarashlari, semantik valentlikning yuzaga chiqishi bilan aloqador bo‘lgan neytral (mo‘tadil, bo‘lishi mumkin, lekin zarur emas, bor/yo‘qligi (eksplitsitligi), voqelanganligi/voqelanmaganligi leksema ma‘nosiga ta‘sir etmaydigan), fakultativ (qo‘shimcha, leksema ma‘nosini aniqlashtiruvchi), zaruriy (majburiy, obligator – leksema tarkibidagi turli sememalarni farqlashga xizmat qiladigan), ajralmas (kompletiv, ma‘lum bir turdagi ma‘no voqelanishi uchun hamisha zarur bo‘lgan) aktantlar, ularning shakliy xususiyatlari olima S.Muhammedova tadqiqotida mufassal o‘rganilganligi bizning bu boradagi

bayonimizni ancha ixchamlashtiradi<sup>38</sup>. Shuning uchun biz bu sohada katta xizmatlar qilgan akademik Iristoy Qo‘chqortoyev, professorlar Shavkat Rahmatullayev, Ravshanxo‘ja Rasulov, Aygul Salkalamanidze, Hamid Ne‘matov, Hurinisa Usmonovalarning qarashlarini bir-bir tahlil qilib, f.f.d. Saodatxon Muhammedova bosib o‘tgan yo‘lni takrorlamaymiz, balki samimiy minnatdorlik bilan olima tadqiqotlariga tayanib ish tutamiz, tadqiqotlarini mohiyatan to‘ldiramiz. S.Muhammedovaning valentlik nazariyasi tarixi va uning o‘zbek tilshunosligiga tatbiqiga bag‘ishlangan mufassal bayonini bir ilova bilan to‘ldirish lozim, zeroki, valentlik haqidagi ta‘limot – bu nazariyaning asosiy tamoyillari (o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy talablari asosida ochiq-ravshan tilga olinmay) Sh.Rahmatullayev va I.Qo‘chqortoyevlardan ancha oldin bizning fanimizga kirib kelgan edi. Bu xayrli ishni 1951-53 yillarda Buxoro pedagogika institutida o‘qituvchi va rektor muovini vazifasida ishlab turgan, keyinchalik O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi hamda madaniyat xodimi faxriy unvonlariga sazovor bo‘lgan, tilshunoslikda substansial tahlil metodologik asoslarini bergan, iste’dodli olim va tarjimon, professor Sergey Ivanov amalga oshirgan edi. U o‘tgan asrning 50 yillari oxirida o‘zbek tilida sifatdoshlarning tabiati xaqida yakunlangan nomzodlik dissertatsiyasi va shu asosda keyinchalik (1959 yilda) e‘lon qilgan monografiyasida<sup>39</sup> turkiy tillarda sifatdoshning hind-yevropa tillaridan tub farqini quyidagi hodisada ko‘rgan edi: turkiy sifatdoshlar vazifa jihatdan juda keng bo‘lib, fe‘l turkumidagi so‘z gapda kesim vazifasida kelganda – uning bilan birikish imkoniyatiga ega bo‘lgan harakat foili (valentlik nazariyasida agens), harakat obykti (valentlik nazariyasida patsiyens), makoni (valentlik nazariyasida lokalis), zamoni (valentlik nazariyasida temporalis), quroli va vositasi (valentlik nazariyasida instrumentalis) v.h.k. ma’noli so‘zlardan istagan biri (valentlik nazariyasida fe‘l aktantlarining barchasi)ni aniqlab kela oladi va shuning bilan faqat harakat foili ma’noli so‘zlarni aniqlab kela oladigan Yevropa tillari

---

<sup>38</sup> Мухамедова С.Х. Ўзбек тилидаги харакат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан л-ри ... дисс. - Тошкент, 2007.-402 б.

<sup>39</sup> Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка - Л.: ЛГУ, 1959. - 152 с.

sifatdoshlaridan tubdan farq qiladi. Qisqacha tavsifdan ko‘rinib turibdiki, olim turkiy tillar sintaksisining qator o‘ziga xosliklarini belgilab beruvchi sifatdoshlar tabiatini valentlik nazariyasi tamoyillari asosida ochgan, lekin davr taqozosi bilan, asosan, G‘arb tilshunosligi (o‘sha davrlarda burjua tilshunosligi deb qoralanib kelingan yo‘nalish)da ommalashgan valentlik nazariyasi tamoyillarining tilga substansial yondashish metodologik asoslari bilan birligi haqida ochiq-oydin yozmagan. Lekin navbatdagi doktorlik monografiyasida u bu haqida ikkilanmay yozadi<sup>40</sup>.

Fanda juda ko‘p kashfiyot va qonuniyatlar sharqda ochilib, g‘arbda nash‘u navo topib, keyin g‘arbona bo‘lib sharqqa qaytganidek\*, valentlik nazariyasi asoslarining vatani ham aslida sharqdir. Valentlik nazariyasi tarixi, uning o‘zbek tilshunosligida ommalashishi masalasi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, professor S.Muhammedovanning mazkur ishida batafsil yoritilgan. Biz bu nazariyaning substansial tahlil asoslari bilan mohiyatan — metodologik jihatdan ayrim umumiy tomonlaridan boshqa deyarli hech narsa ilova qilolmaymiz. S.Muhammedova tavsifi bo‘yicha bu nazariyaning qisqacha tarixi quyidagicha:

Til hodisalarida valentlik qonuniyatlarining mavjudligi dastavval verbotsentrizm g‘oyasi bilan uyg‘un holatda tushuntirilgan bo‘lsa, XIX asr oxiridan boshlab bu sohada jiddiy izlanishlar yuzaga keldi. Jumladan, A.M.Peshkovskiy asarlarida fe‘l boshqaruvi to‘g‘risida<sup>41</sup>, Fitrat lingvistik qarashlarida kesimning markaziy bo‘lakligi va gapdagi to‘ldiruvchilar ishtirokining unga bog‘liqligi<sup>42</sup> masalalari yoritilgan bo‘lsa, fransuz tilshunosi L.Tenyer valentlik tushunchasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan<sup>43</sup>.

So‘zlarning birikish qonuniyatlari, valentlikni tavsiflash metodikasi, ayniqsa, Germaniyada nemis tilshunoslari tomonidan keng tadqiq qilingan. Bu

---

<sup>40</sup> Иванов С.Н. Родословное древо тюрков Абул-Гази Хана. Грамматический очерк (имя и глагол). Тошкент: Фан, 1969. - 204 с.

\* Bu g‘oya G‘afur G‘ulomning "Men yaxudiy" va Abdulla Oripovning "Kolumbda bor alamim mening... she'rlarida obrazli ifodalangan.

<sup>41</sup> Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 1-ое изд. - Москва: Уч. пед. из., 1938. - 452

<sup>42</sup> Курбонова М. Фитрат - тилшунос. - Тошкент: Университет, 1996.-326.

<sup>43</sup> Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. - Москва: Прогресс, 1988. - 656 с.

sohada G.Xelbig, A.Balveg-Shramm, G.Shumaxer kabi olimlarning xizmati beqiyos<sup>44</sup>. Soʻzning maʼnoviy (leksik-semantik) valentligi tushunchasi oʻtgan asrning 20-30-yillarida shakllandi va juda tez ommalashdi. XX asrning 40-yillarida sovet tilshunosligiga valentlik tushunchasini S.D.Katsnelson olib kirdi<sup>45</sup>. Maʼnoviy (semantik) va sintaktik, lisoniy va nutqiy valentlik talqini ustida olimlar oʻrtasida uzoq yillar bahs davom etdi. Mazkur jiddiy masala yechimini oʻzbek tilshunosi R.Rasulov va olimning izdoshlari berishdi<sup>46</sup>. Olim masalani lison-nutq, imkoniyat-voqelik, sabab-oqibat dialektikasi aspektida talqin etib, lisoniy (semantik) valentlik hodisasini imkoniyat, sintaktik (nutqiy) valentlikni voqelik sifatida baholadi. Shu bilan birga valentlik hodisasining ham semantika, ham sintaksisga daxldorligi dialektik nuqtai nazardan ochib berildi.

Quyida valentlik mohiyatini til qurilishi va lisoniy birliklar tavsifiga substansial yondashish nuqtai nazaridan koʻrib chiqamiz. Muayyan bir soʻzning maʼlum bir maʼnoviy guruh soʻzlari bilan meyoriy ravishda birika olish qobiliyati soʻz valentligidir. Demak, leksik-semantik valentlik – bu qobiliyat, imkoniyat. Boshqacha qilib aytsak, soʻzlarning nutqda oʻzaro birikish imkoniyatlari **semantik** (maʼnoviy, lisoniy) yoki **leksik-semantik** va **semantik-sintaktik** valentlik deyiladi. Bu hukmni ishning birinchi bobida bayon etilgan gʻoyalar va tamoyillar bilan qiyoslasak, valentlik nazariyasining mohiyatan substansiallik bilan yaqinligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Lisoniy valentlik soʻzning semantik strukturasi mujassamlangan yashirin imkoniyat, mohiyat, umumiylik, zaruriyatdir. Nutqiy valentlik esa lisoniy valentlikning roʻyobga chiqishidir. Masalan, *yurmoq* leksemasi oʻz maʼnoviy xususiyatlariga koʻra bir qator soʻzlar bilan aniqlanishni

---


<sup>44</sup> Степанова М.Д., Хельви́г Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. - Москва: Высшая школа, 1978. - 257 с; Бальвег-Шрамм А., Шумахер Г. Словарь глагольных валентностей на семантической основе /Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XIV. Проблемы и методы лексикографии. - Москва: Прогресс, 1983. - С. 201-226.

<sup>45</sup> Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности/Вопросы языкознания. - Москва, 1987. - №3. - С. 20-32.; Кацнельсон С.Д. О грамматической категории // Вестник ЛГУ. Серия истории языка и литературы. - Л., 1948. №2.-С. 114-134.

<sup>46</sup> Расулов Р. Ўзбек тилидаги холат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. - Тошкент: Фан, 1989. - 142 б.

talab etadi – *yurish* harakati kimningdir tomonidan, ma’lum bir maqsadda, qay bir makon, zamon, tarz, sharoitda, ma’lum bir vosita bilan bajariladi (Qarang:

2.1-rasm):



Shu asosda *yurmoq* fe’li mana shu ma’nolarni ifodalaydigan – so‘roqlarga javob bo‘la oladigan so‘zlar bilan birikish qobiliyatiga ega. Bu lisoniy, ma’noviy qobiliyatdir. Nutqda, qo‘llanilishda mana shu imkoniyat muayyan moddiy shaklda voqelanadi. Bunday voqelanishda juda katta rang-baranglik mavjud. Chunonchi, *qachon?* so‘rog‘iga javob bo‘la oladigan nutqiy vosita (ya’ni zamon aktanti) ravish (*endi yur-*), bosh yoki o‘rin kelishigi shaklli yoki ko‘makchili ot (*bu yil-/kunda/ta’tildan keyin... yur-*), ravishdoshlar (*tuzalgach, yur-*), sifatdoshlar (*aytganda yur-*) kabi so‘zlar bilan, so‘z birikmalari, kengaygan ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi birikmalari bilan va nihoyat, ergash gaplar bilan to‘ldirilishi mumkin. Mana shu muayyan voqelik semantik (lisoniy) imkoniyatning nutqiy voqelanishi bo‘lib, sintaktik (nutqiy) valentlikni tashkil etadi. Shunga ko‘ra istagan so‘z nutqda qo‘llanilganda, ya’ni sintaktik qurilmaning imkoniy tarkibi ushbu konstruksiyada hokim mavqeida kelgan so‘zning semantik valentligidan kelib chiqadi – nutqiy sintaktik qurilma o‘z tarkibida kelgan a‘zo (so‘zlar bilan go‘yoki hokim so‘zning semantik valentligida mujassamlashgan, Yashiringan holda imkoniyat sifatida saqlangan qobiliyatni oddiygina muayyan shaklda yuzaga chiqaradi. Chunonchi, *U yurdi* qurilmasi markazida kelgan *yur-* so‘zi huzurida mana shu matnda 2-chizmada ko‘rsatilgan so‘roqlarga javob bo‘layotgan qismlar yo‘q. Lekin ular yo‘qolgan emas – oddiygina voqelanmagan, xolos, lekin imkoniyat sifatida so‘zning semantik valentligida yashirinib turibdi; albatta, yurish harakati ma’lum bir makon va zamonda, yo‘nalish va tarzda, vosita va maqsadda amalga oshiriladi. “*U yurdi*” matnida ular moddiy shaklda ifodalanmagan, xolos. Shuning uchun sintaktik qurilmaning tarkibi, eng avvalo, uning hokim komponenti

vazifasida kelgan lugʻaviy birlikning semantik valentligi bilan belgilanadi, desak xato ham, mubolagʻa ham boʻlmaydi. Lekin qurilma tarkibida sintaktik tobe boʻlak mavqeida kelgan soʻzlarning ham semantik valentligi qurilma strukturasi kuchli taʼsir koʻrsatadi, zeroki, birinchidan, sintaktik hokim-tobelik nisbiy tushuncha boʻlib, bir qism uchun tobe mavqeida boʻlgan soʻz ikkinchi bir qism uchun hokim mavqeida boʻlaveradi (*chunonchi, katta binoning derazasidan ... qurilmasida binoning va derazasidan* soʻzshakllari xuddi shunday mavqeda). Ikkinchidan, sintaktik qurilma tarkibida birikish bir tomonlama – faqat hokimdan tobega yoʻnaltirilgan emas, balki, S.A.Nazarova atroflicha asoslab bergani<sup>47</sup> va oʻzbek tili grammatik qurilishi tavsifiga bagʻishlangan substansial yoʻnalishdagi keyingi darslik<sup>48</sup> va qoʻllanmalarda<sup>49</sup> sharhlanganidek, ikki tomonlamadir — hokim boʻlak mavqeida kelgan soʻzning semantik valentligi bilan tobe boʻlak vazifasida kelgan soʻzning semantik valentligi oʻzaro moslashadi. *Chunonchi, shirin qovun* birikmasida belgi-xususiyat umumiy maʼnoli *shirin* soʻzi predmetni atab kelgan soʻz bilan bogʻlanishga, predmet maʼnoli *qovun* soʻzi esa belgi-xususiyat maʼnoli soʻz bilan bogʻlanishga ehtiyoj sezadi, chunki borliqda bu ikki maʼno bir-biridan ajralmas boʻlib, sinkretik tabiatga ega<sup>50</sup> - *shirin* leksemasi predmetni atab keluvchi soʻz bilan, *qovun* soʻzi esa belgi-xususiyat nomini atab keluvchi soʻz bilan birikish ehtiyojini sezadi va *shirin qovun* soʻz birikmasida bu ikki turli ehtiyoj qondiriladi. Oʻzaro birikuvchi soʻzlarning semantik strukturasi semalarda uygʻunlik, biri-birini toʻldirish boʻlgan taqdirda meʼyoriy birikish va oʻz maʼno (*shirin qovun*), ularning orasida biri-birining inkori yoki ziddiyat boʻlganda – koʻchma maʼno (*shirin uyqu, shirin dushman*) voqelanadi<sup>51</sup>.

---

<sup>47</sup> Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. - Тошкент, 1997. - 21 б.

<sup>48</sup> Sayfullayeva R. Ба 6. Hozirgi o zbek adabiy tili - Toshket: Fan va texnologiya, 2010.- Б. 23-30

<sup>49</sup> Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Бокиева Г. ва б. Хозирги ўзбек тили. - Тошкент ЎЗМУ, 2007.-Б. 38; Сайфуллаева Р.ва б. Хозирги ўзбек тили. - Тошкен: Фан ва технология, 2009.-416 б.

<sup>50</sup> Ширинова Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарклаш воситалари: Филол. фан номз. ...дисс. - Бухоро, 2010.-157б.

<sup>51</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия - Тошкент: Фан, 1975.-140 б.; Нарзиева М. Семантическая структура и компонентный анализ имен существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1992.-22с.

Alohida ta'kidlash kerakki, leksik-semantik valentlik tilshunoslikda bizda ham, xorijda ham, asosan, fe'l turkumiga mansub so'zlar doirasida keng o'rganilgan. Ism turkumlariga mansub so'zlarning semantik valentligi deyarli o'rganilmagan va bu yo'nalishga aloqador ishlar – hatto 20000 dan ziyodroq tadqiqotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan H.Shumaxer bibliografiyasida ham – barmoq bilan sanarlidir<sup>52</sup>. Bizda esa bu masala, asosan, ot (keng ma'noda) boshqaruvi aspektida qisman o'rganilgan<sup>53</sup>. Binobarin, ism turkumlariga mansub so'zlarning valentligi hali maxsus tadqiq etilishi zarur.

Semantik valentlik xususiyatlari asosida so'zlarni o'ziga xos guruhlash an'anasi ham tilshunoslikda juda qadimiy tamoyillardan biri bo'lib, uning tarixi qadimgi hind hamda yunon tilshunosligiga borib taqaladi. Lekin bunday bo'linish, odatda, fe'llarni o'timli va o'timsiz kabi turlarga ajratishdan nari bormaydi. Keyingi davr tilshunosligida leksikani sistema sifatida talqin etish zarurati asosida so'zlarni ma'noviy umumiyliklar asosida har xil uyalarga — lug'aviy-ma'noviy guruhlar (LSG - leksik-semantik guruhlar), to'dalar va maydonlarga birlashtirib o'rganish avj oldi<sup>54</sup>. Shu jarayonda ma'lum bo'ldiki, valentlik qobiliyati har xil, hatto bir-biriga zid bo'lgan so'zlar ham bir lug'aviy-ma'noviy guruh/to'da/maydon kabi to'plamlarga mansub bo'la olar ekan. Bu esa, o'z navbatida, yangi turdagi ham semantik, ham sintaktik xususiyatlari o'zaro uyg'unlashgan to'plamlarni – **semantik-sintaktik guruhlar** (SSGlar)ni ajratish va o'rganishga olib keldi. Tilshunosligimizda SSG juda kam – shunda ham, asosan, fe'llar doirasida o'rganilganligi, sintaktik qurilma tarkibi va strukturasiga LSGlar emas, asosan,

---

<sup>52</sup> Sommerfeld Karl-Ernst, Schreiber Herbert. Worterbuch zur Valenz und Distribution der Substantive. WEB Bibliographisches Institut Leipzig, 1980. - 432 s.

<sup>53</sup> Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? - Тошкент: Фан, 1974.-75 б.; Абдуллаев Ф., Иброхимова Ф. Ўзбек тилида бошқарув. Тошкент: Ўзбекистон, 1982. -140 б.; Абдуллаев Ф., Иброхимова Ф. Сўз бирикмаси синтаксисининг ривожланиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1972. - No2.- Б. 36-41.; Иброхимова Ф. Именное управление в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1972.- 34с.; Иброхимова Ф. От бошқарувининг айрим масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1971. - No2. - Б. 47-51.; Иброхимова Ф. Сифат бошқаруви // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1971. - No6. - Б. 34-37.

<sup>54</sup> Ўзбек тилшунослигида бу йўналишда килинган ишларнинг муфассал тахлили И.Кучкортоев, З.Бегматов, хусусан, ш.Искандарова ишларида берилган.

SSGlar ta'sir ko'rsatishi sababli shu muammo ustida to'xtalamiz va ishimizning navbatdagi bobini mazkur masala tadqiqiga bag'ishlaymiz.

### I bob bo'yicha xulosa

*Valentlik* aslida kimyoviy atama, tilshunoslikda lisoniy birliklarning yuzaga chiqmagan birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyati sifatida qaraluvchi lisoniy hodisaga nisbatan qo'llaniladi. Atomning valentligi ro'yobga chiqmagan, namoyon bo'lishi uchun sharoit talab etiladigan imkoniyat. Lisoniy birlik ham ana shunday birikish-biriktirish imkoniyatiga ega, u (ya'ni valentlik) ham lisoniy birliklarning o'zi bilan muayyan til jamiyati a'zolari ongida yashaydi. Demak, valentlik lisoniy, sintaktik aloqa esa nutqiy hodisa sifatida qaraladi. Ular lison va nutqning barcha qarama-qarshi belgilarini o'zida aks ettiradi.

<b>Valentlik</b>	<b>Sintaktik aloqa</b>
Umumiylik	Alohidalik
Mohiyat	Hodisa
Imkoniyat	Voqelik
Sabab	Oqibat

Valentlik nazariyasining o'rganilib kelish darajasi kundan kunga ortmoqda. XX asr boshlariga qadar valentlik masalasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi o'laroq leksik valentlik, semantik valentlik, leksik-semantik va leksik-sintaktik valentliklar kabi turlari ajratilib tadqiq etildi.

Aytish joizki, valentlik masalasida tilshunoslikda yechimini kutayotgan muammolar ko'p. Shular qatoriga til hodisasiga substansial yondashishda leksik valentlik bilan birga grammatik valentlik yoki morfologik valentlik farqlanadi. Hozirgi kunda valentlik nazariyasiga tilda substansial, yani ma'lum bir imkoniyatlar majmui, yashirin potinsional sifatida yondashish metadalogiyasining aks etishini ko'rishimiz mumkun. Ammo bu holat hali yetarlicha o'rganilmagan. So'zlarning valent imkoniyatlari tilda asosan sintaktik valentlik yoki semantik valentlik kabi asosan ikki turga bo'lib o'rganilar edi. Bugungi tilshunoslikda so'zlarni har ikkala imkoniyatini namoyon qiladigan semantik-sintaktik guruhlariga ajratish masalasi yetakchilik qilmoqda. Ushbu muammo barcha turkumlar



doirasida ko‘rib chiqilib, so‘zning valent xususiyati sifatida turkum valentligi emas, balki har bir SSGning neytral, zaruriy valentligi hisobga olinadi. Ushbu jarayonda turkum doirasidagi so‘zlar malum to‘plam va tasniflarga ajratiladi va ular o‘ziga xos ma’noviy-sintaktik guruhlar sifatida namoyon bo‘ladi.

## II BOB. GRAMMATIK VALENTLIK VA UNING SINTAKTIK QURILMA TUZILISHIDAGI AHAMIYATI

### 2.1. Semantik-sintaktik guruhlar valentligi va o'ziga xos xususiyatlari

Semantik-sintaktik guruh (SSG) tushunchasi tilshunoslikda nisbatan yangi. O'zbek tilshunosligiga bu atamani A.A.Salkalamanidze olib kirdi<sup>55</sup>. SSG atamasi ostida valentlik qobiliyat(lar)i bir xil va ma'lum bir o'ta umumiy ma'no bilan birlashadigan so'zlar guruhi tushuniladi.

Bunday guruhlardagi ma'noviy umumiylik so'zlarni ma'noviy guruhlarga ajratishdagi holatdan tubdan farq qiladi. Ikkinchi holatda — so'zlarni sof ma'noviy guruhlarga ajratishda – bir guruhga birlashadigan so'zlarning umumiy (integral, birlashtiruvchi) denotativ semaga ega bo'lishi ahamiyatli bo'lib, bu semaning umumiylik darajasi leksik-semantik guruh, leksik-semantik to'da, leksik-semantik mavzu, leksik-semantik maydonda har xil bo'lib, LSG - LSM yo'nalishida o'sib boradi. Lekin qanchalik umumiylik darajasiga ko'tarilmasin, baribir denotatsiya – atash ma'nosi doirasida qoladi. SSGlarni ajratishda esa semantik omil denotativ ma'no bilan bevosita bog'langan emas, ma'lum bir ma'noviy tarkibiy qism (sema) mavqeida so'z denotativ ma'nosining semantik strukturasi o'rin olmaydi yoki juda yuqori darajalarda turadi, lekin so'z guruhlari shakllarining bog'lanishlarida ahamiyat kashf etadi. Boshqacha aytganda, SSGlarda semantik omil grammatik – shakl yasash va uni qo'llashda ahamiyatlidir<sup>56</sup>. Chunonchi, ot turkumi ichida modda-ma'dan, xom ashyo nomlarini atovchi leksemalarni alohida bir SSGga birlashtirish mumkin. Bu otlar qator grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, sun'iy - yasaladigan narsa-buyum, ashyoyu mavjudotlarni atovchi so'zlar bilan bitishuv aloqalari orqali bog'lanadi (*yog'och qoshiq, tosh uy, duxoba do'ppi*), bitishuv va boshqaruvli so'z birikmalari har xil ma'nolarni voqelantiradi (*mis pech mis pechi*), ko'plik son qo'shimchasi *-lar* bilan birikkanda o'ziga xos ma'noga ega bo'ladi va b. Ularning valentlik borasidagi umumiyliги shundan iboratki, mazkur

<sup>55</sup> Цалкаламанидзе А.А. Семантико-синтаксические группы глаголов в узбекском языке. Тбилиси: Мецниереба, 1987. – 129 с.

<sup>56</sup> Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантико синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке // Советская тюркология. - Москва, 1979. - №3. - С.48-56.

birliklar neytral valentlikka ega, kuchli (zaruriy, obligator) valentlik ular uchun xos emas.

SSG fanimizda faqat fe'llar asosida o'rganilgan va tavsif etilgan. Bu jihatdan yetakchilik Aygul Salkalamanidze ishlariga tegishli bo'lib, Ravshanxo'ja Rasulov va, qisman, Saodat Sultonsaidova, Saodat Muhammedovalar ishlarida fe'l nisbatlari ma'no va vazifalarini, ularning so'z o'zgartirish va so'z yasashga munosabatlarini sharhlashda A.Salkalamanidze ajratgan SSGlarga tayanildi<sup>57</sup>. A.Salkalamanidze esa fe'llarning an'anaviy o'timli-o'timsizga ajratilishini davom ettirib, o'zbek tilidagi o'timsiz fe'llarni medial va nomedial, o'timlilarni esa reflektiv va noreflektiv, natijali va natijasiz faoliyat fe'llari, ularning o'zini yana bir necha (jami 9ta) ichki guruhchalarga ajratib, fanda fe'llarda ajratiladigan 56 turdagi ma'noviy guruhlarning barchasini shu SSGlarga birlashtirdi (x-ilova) va har bir SSG mansub bo'lgan sintaktik kurilmalarning zaruriy tarkibiy kismi modellarini, ajratilgan SSGlarning har biri uchun tipik bo'lgan minimal modellarining o'zaro munosabatini, fe'llarning zaruriy valentligini miqdori jihatidan bir valentli, ikki valentli, to'rt valentli... sifatida tasnifladi. Olima o'z monografiyasida tilimizdagi bir necha yuz fe'lning shu jihatdan tavsiflarini model va yorqin misollarda berdiki, bugungi kunda o'zbek tilida fe'llarning SSG va har bir SSG leksemasi markazida turgan sintaktik qurilmalar tarkibi va strukturasi tavsifiga yangi ma'lumot qo'shib bo'lmaydi. Lekin ism turkumlariga mansub bo'lgan so'zlarning valentligi, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, deyarli o'rganilmagan bo'lganligi bois bu turkum so'zlarning valentlik qobiliyati va so'z turkumlarida ajratilishi mumkin bo'lgan SSG, bunday SSGlarning ot, sifat va b. turkum so'zlarining LSGlariga munosabati, har bir SSG uchun umumiy bo'lgan sintaktik qurilma tarkibi va strukturasi haqida ayrim kuzatishlarimiz va mulohazalarimizni keltirishimiz zarur. Albatta, ular bu sohadagi ilk qadamlardan bo'lganligi bois hali g'o'r, munozarali va izohu diqqattalabdir – ularning har biri –

---

<sup>57</sup> Мухамедова С.Х. Ўзбек тилидаги ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. Тошкент, 2007. - 402 б.; Расулов Р. Лексико-семантические группы глаголов состояния и их валентность. - Ташкент: Фан, 1991.-177с.; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категорияларнинг ўзаро муносабати: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 1994. -57 б.

ot, sifat turkumi soʻzlarining ayrimayrim maʼnoviy guruhleri S.Ibrohimov, I.Qoʻchqortoyev, E.Begmatov, R.Doniyorov, Y.Tojiyev, M.Abdiyev, A.Sobirov, Sh.Iskandarova, S.Soliyev, M.Sodiqova, T.Nuʼmonov, N.Mirzayev, Y.Eshonqulov, T.Tursunova, 3.Husainova, R.Saloyev, G.Neʼmatova, N.Nishonova kabi oʻnlab tadqiqotchilarning ishlarida maxsus oʻrganilganidek — alohida tadqiq manbai boʻla oladi. Lekin ishimizda qoʻyilgan bosh mavzu (sintaktik qurilma tarkibini belgilovchi substansial omillar) SSGlar bilan bogʻliqligi sababli biz bu masala ustida toʻxtalishimiz, hech boʻlmaganda, ism turkumiga mansub boʻlgan bir-ikki SSGning bir necha birligi misolida uning sintaktik qurilma tuzilishiga qanday taʼsir etishi (aniqrogʻi, uni belgilashini koʻrsatib oʻtishimiz shart. Ishonch bilan aytish mumkinki, ism turkumiga oid soʻzlarning SSGlari kelajakda, lugʻaviy-maʼnoviy guruhlardek, qator tadqiqotlarda maxsus tahlil hamda tavsif manbai boʻladi va hozirgi kamtarona ish ularga bir debocha vazifasini oʻtaydi.

Taʼkidlash lozimki, tilshunoslikda Arastudan boshlab ajratilib kelinayotgan soʻz turkumlari oʻziga xos SSGlardir. Zero, ularning ajratilishi hamisha maʼnoviy va sintaktik belgilar asosida amalga oshirilgan va qadimgi davrlardan boshlab hozirgacha davom etib kelmoqda<sup>58</sup>. Har bir soʻz turkumida oʻziga xos umumiy birikuvchanlik qobiliyati mavjud. U, akademik A.Hojiyev taʼbiri bilan aytganda, turkum maʼnosi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, soʻzning muayyan maʼnosi<sup>59</sup> bilan aloqador emas. Chunonchi, ot soʻz turkumiga mansub istalgan soʻz belgi-xususiyat, mikdor, egalik qoʻshimchalari bilan birikib kelgan boʻlsa, qaratqichli-qaratuvchi neytral valentligiga ega. Odatda, aniqlovchi vazifasida keladigan bunday boʻlaklar soʻzning fakultativ va zaruriy valentliklari, soʻzning semantik xususiyatlari bilan bevosita aloqador emas. Bu xususiyat ot turkumiga mansub boʻlgan barcha soʻzlar uchun umumiy boʻlganligi sababli bu soʻz turkumi SSGlarini ajratishda bunday aktantlar hisobga olinmaydi, zeroki, ot soʻz turkumiga

---

<sup>58</sup> Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. - Самарқанд: СамДУ, 1996. – 126 б.; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумлارининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фан. д-ри. ... дисс. - Самарқанд, 2005. - 250 б.

<sup>59</sup> Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. - Б. 88-98.

xos umumiy neytral valentlikdir. Borlikda belgixususiyat va predmetlik sinkretik (diffuz, birgalikda, bir-biridan ajralmay, qorishiq) yashashi, ong va til esa ularni bir-biridan uzib, mustaqil lisoniy birliklar sifatida alohida-alohida shakllantirishi va nomlangan shaklda voqelantirishi sababli 15 predmetlikni atovchi so‘zlar har xil aniqlovchilar bilan, belgi-xususiyat turkum ma’noli sifatlar, miqdor ma’noli sonlar esa predmetlik ma’nosini ifodalovchi otlar bilan birikishga ehtiyoj sezadi. Bu butun turkum uchun umumiy bo‘lganligi sababli muayyan so‘zlarning ma’nosi bilan bevosita aloqador emas. Akademik A.Hojiyev ishlarida qo‘llangan “turkum ma’nosi” atamasini biz bu o‘rinda “turkum valentligi” sifatida ishlatishimiz, kengaytirishimiz mumkin. “Turkum valentligi” deganda ma’lum bir so‘z turkumining barcha so‘zlari uchun xos bo‘lgan umumiy birikish qobiliyati tushuniladi. Yuqorida sanab o‘tilgan, masalan, ot turkumida so‘zning muayyan leksik ma’nosi bilan bog‘liq ravishda sifatlovchi aniqlovchi mavqaida keladigan sifat va miqdor ma’noli so‘zlarga birikib, aniqlanib kelishi mana shunday *turkum valentligi*dir. Xuddi shunday – fe’llarda ham shaxs, zamon, makon, tarz aktantlari bilan bog‘lanish qobiliyati turkum valentligi bo‘lib keladi, chunki bunday aktantlar bilan bog‘lana olmaydigan fe’l o‘zbek tilida yo‘q\*<sup>60</sup>. Turkum valentligi shu turkumga mansub so‘zlarning barchasi uchun umumiy va neytral, imkoniy valentlik sifatida qabul qilinishi lozim. Ular juda ko‘p hollarda determinantlar – gapning struktur qurilishiga bevosita aloqador bo‘lmagan, gapning zaruriy lisoniy qurilish qolipidan o‘rin olmaydigan bo‘laklar<sup>61</sup>, so‘z kengaytiruvchilari<sup>62</sup> mavqaida kela oladi. Lekin ayrim tadqiqotchilar, jumladan, professor A.Salkalamanizde ko‘rsatganidek, ayrim fe’llar huzurida fe’l uchun umumiy bo‘lgan turkum

---

<sup>60</sup> "Ўинд-европа тилларидан фарқли равишда ўзбек тилида шахс актантига эга бўлмаган — шахссиз феъллар (безличные глаголы) йўқ (Қаранг: Саидова М.Р. Сравнительно-типологическое исследование односоставных предложений в русском и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1996. – 24 с.).

<sup>61</sup> Шведова Н.Ю. Детерминирующий объект и и детерминирующее обстоятельство как самостоятельные распространители предложения// Вопросы языкознания. 1964.- No44.-С. 77-94.; Шведова Н.Ю. Существуют ли все-таки детерминантные распространители предложения//Вопросы языкознания. – Москва, 1968. - No2. - С. 39-51.

<sup>62</sup> Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 1994. – 136 б.; Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. - Тошкент, 1997.-22 б.

valentligi neytral valentlik mavqeida emas, balki **zaruriy** (obligator, soʻzning maʼnosini ochish uchun zarur boʻlgan aktant) mavqeida boʻla oladi<sup>63</sup>.

Soʻzlarning SSGlari har bir soʻz turkumi ichida ajratiladi va unda turkum valentligi emas, balki har bir SSGning oʻziga xos neytral va zaruriy valentligi hisobga olinadi. Shuning uchun SSGlar mohiyatan maʼnoviy va sintaktik tamoyillar asosida ajratiladigan anʼanaviy soʻz turkumlari ichida oʻziga xos kichikroq maʼnoviy-sintaktik guruhlardir.

Valentlik bilan aloqador boʻlib, fanimizda deyarli oʻrganilmagan, lekin SSGlarni ajratish uchun ahamiyatli boʻlgan masalalardan yana biri derivatsiya va valentlik muammosidir. Taʼkidlab oʻtish kerakki, bu juda katta masala boʻlib, kelajakda maxsus tadqiqotlar manbai boʻladi. Lekin hozirda tadqiqotimiz uchun zarur boʻlgan tamoyilni eslatib oʻtish lozim. Bunda substansial tilshunoslikda qabul qilingan yasama soʻz va yasalgan soʻz tushunchalarini farqlash zarurati mavjud<sup>64</sup>. Yasama soʻzda – yasama soʻz boshqa turkumga oʻtib ketgan boʻlsa ham — asos soʻzning turkum valentligi saqlanadi va yasama soʻz ham asos soʻz turkum valentligiga, ham yasama soʻz mansub boʻlgan turkum valentliklariga ega boʻla oladi. Chunonchi, “*uchadigan, uchish harakatini bajaradigan*” maʼnoli *uchuvchi* yasama soʻzi *uchoq* feʼli valentliklarini toʻla saqlagan holda ot turkumi uchun uchun xos boʻlgan otlar bilan aniqlovchi vazifasida bitishuv yoʻli bilan bogʻlanish valentligiga ham egadir. Yasalgan soʻzda holat sal boshqacharoq va bu masala maxsus tadqiq etilishi lozim. Chunonchi, “*uchish mashinalarini boshqaruvchi shaxs/narsa*” maʼnosidagi *uchuvchi* leksemasida asos soʻz valentligi (*uchmoq* feʼlining valentligi) toʻla saqlanmaydi – bu soʻz, asosan, ot turkumi uchun xos boʻlgan valentliklarga ega, xolos. Shuning uchun kelgusi tadqiqotlarda asos soʻz valentligining saqlanishi/oʻzgarishi yasama va yasalgan soʻzni farqlashda oʻziga xos meyorlardan biri vazifasini oʻtashi mumkin. Shu tamoyil asosida harakat

---

<sup>63</sup> Цалкаламанидзе А.А. Об одной особенности обстоятельства места В языке «Атебат-ул-хакайык» //Советская тюркология. 1975. No2. С. 74-76.

<sup>64</sup> Неъматов Ҳ. Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субстанциал йўналишлар хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2009. - No4. - Б. 35-41.; Неъматов Ҳ. Сўз яшаш қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2007. No4. - Б. 14-19.; Neʼmatov H.Gʻ., Megliyev B., 93

nomlarida ham fe'l turkumining, ham ot turkumining valentlik qobiliyatlari mavjud bo'ladi va bunda *urish* hamda *urush* so'zlarining valentligida farq(lar) ko'zga tashlanadi.


Shunday ilk mulohazalardan keyin ism turkumiga mansub so'z turkumlari ichida SSGlarni ajratish va ular beradigan sintaktik qurilmalar modellarini sanab o'tishimiz mumkin. Bunda biz Tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham, odat tusiga kirgan usuldan – modellarda lotincha harflardan foydalanishga amal qilamiz. Bunda ramz — SSGga, bu ramzning oldidagi kichik indeks – so'z turkumi (n — ot, a — sifat, nu – son, ad – ravish)ga, orqasidagi kichik indeks – SSGning turi (chunonchi, h – hujjatlar)ga ishora qiladi. Chunonchi,  ${}_nSSG^h$  - “hujjatlar” semantik-sintaktik guruhiga mansub so'z”.

**Ot turkumiga** oid so'zlar ichida o'ziga xos semantik valentlikka ega bo'lgan so'zlar sifatida, eng avvalo, biz shartli ravishda “hujjatlar” deb ataydigan va ma'lum bir turdagi axborotni o'z ichiga olgan so'zlar (alohida bir SSG) ajratilishi lozim (qisq.:  ${}_nSSG^h$ ). Bunday so'zlarning miqdori juda ko'p: *xat, bayon, insho, kitob, she'r, asar, ariza, ma'lumotnoma, guvohnoma, dalolatnoma, ko'rsatma, buyruq, farmon, iltimosnoma, talabnoma, izoh, sharh, ilova, shikoyat, arz, savol, javob...*

${}_nSSG^h$  ga mansub so'z markazida turgan sintaktik qurilmaning tarkibi va strukturasi\*:

${}_nSSG^h / O_{ad} \sim O_{adr} \sim O_k$  yoki quyidagi shakldadir (Qarang: 2.2-rasm):

**Ot turkumiga mansub “hujjatlar” nomli semantik-sintaktik guruh  
strukturasi**




**2.2-rasm**

Demak, SSG guruhiga mansub bo'lgan so'z unda mujassamlangan ma'noni to'la ochib berish uchun **adresat** (kimga/nimaga yo'nalganlik, atalganlik), **adresant** (kimdan chiqayotganligi), sabab ma'nolarini ifodalovchi vositasiz

to'ldiruvchilar bilan birikkan bo'ladi va ular bilan birgalikda bir sintaktik kurilmani tashkil etadi: chunonchi, *boshliqqa xodimdan ta'til haqida ariza/iltimosnoma...*

Asosan, yozma mahsulot umumiy ma'nosi bilan birlashadigan va muayyan otlardan iborat bu guruhga kiruvchi so'zlardan tashqari shu SSGga ma'lum bir manbaga qaratilgan his-tuyg'ularni atovchi mavhum otlar ham (*muhabbat, sevgi, ishq, mehr, vafo, sadoqat, hurmat, xizmat, befarqlik, havas, mayl, istak, xohish, ishonch, umid, ixlos, shafqat, nafrat, g'azab, adolat, hamiyat, zulm, jabr, zo'rlik, xiyonat...*) mansubdir. Bu so'zlar bilan tuziladigan sintaktik qurilmalarda faqat  $O_k$  fakultativ aktanti fakultativdan neytral mavqeiga tushadi, xolos, ya'ni model quyidagi ko'rinishda bo'ladi (2.3-rasm):

**Mavhum ot turkumiga mansub semantik-sintaktik guruh  
strukturasi**



**2.3-rasm**


Yuqoridagi ko'rinishiga ega bo'ladi: *shohdin raiyatga adl farz, mazlumga – shafqat, zolimga – g'azab vojibdur* (P.Qodirov); *fuqarolardan Vatanga sadoqat...*

Biror ish-harakatning samarasi *foyda, zarar, samara, mahsul, unum...* ma'noli so'zlar ham ayni shunday sintaktik qurilmalarni bera oladi. Shaxs otlaridan shaxsni mansab, lavozim (*hokim, rais, vazir, boshliq, o'rinbosar, muovin, yordamchi, qorovul, soqchi, navbatchi...*), kasb-koriga ko'ra tavsiflovchi otlar (*o'qituvchi, oshpaz, duradgor, o'tinchi, poykor, uchuvchi...*) ( ${}_nSSG^k$ ) o'rin holli fakultativ va jo'nalish kelishigi shaklidagi vositali to'ldiruvchi zaruriy valentligiga ega hamda quyidagi tuzilishli sintaktik qurilmalarni bera oladi (2.4-rasm):

**Shaxsni mansab, lavozim, kasb-koriga ko'ra tavsiflovchi otlar  
SSG strukturasi**

${}_nSSG^k / O_{ad} \sim A_{loc} \text{ ёки}$





**2.4-rasm**


Ot turkumi ichida o'ziga xos SSG sifatida modda-ma'dan, xom ashyo otlari va shaxs otlari ( $nSSG^m$ ) ajratilishi zarur. Bularni alohida bir SSGga ajratish uchun asos shundan iboratki, bu so'zlar boshqa otlar bilan ikki usulda:

1) bosh kelishik shaklida bitishuv yo'li bilan (*po'lat kesgich, mis qozon, o'zbek qiz, o'qituvchi ayol, toshkentlik bola...*);

2) belgili/belgisiz qaratqich kelishigi shaklida moslashuv yo'li bilan (*po'lat kesgichi, mis qozoni, o'zbek qizi, o'qituvchi ayoli, toshkentlik bolasi...*) bog'lanadi.

Bunday ikki xil bog'lanishda  $nSSG^m$ ga mansub so'zlar turli xildagi ma'nolarni ifodalashi va uning sabablari fanimizda ko'p marotaba muhokama va munozara etilgan: fikrlar rivoji bunda - omonimiya hodisasini ko'rishdan<sup>65</sup>  $nSSG^m$ ga mansub so'zlar (jumladan, shaxs otlari)ni ot turkumidan chiqarish, ularni sifat deb tan olishgacha; ikkinchi holat (*o'qituvchi ayoli*)da esa – leksikalizatsiya (substantivatsiya) hodisasini ko'rish<sup>66</sup> hamda ot-sifat sinkretizmigacha o'sib boradi. Buning sabablari hozircha bizni qiziqtirmaydi, lekin  $nSSG^m$  guruhiga mansub so'zlarning ikki xil sintaktik kurilmani berishi va ularning har birida o'ziga xos ma'noga ega bo'lishi ularni alohida SSGga ajratish uchun yetarli asos bo'la oladi(2.5-rasm):

### **Modda-ma'dan, xom ashyo otlari SSG strukturasi**



<sup>65</sup> Ф. Исахов Ф.Г. Лексико-грамматическая классификация слов или части речи в тюркских языках// Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Морфология. Ч. II. Москва: Наука, 1956. С. 72-77.; Исахов Ф.Г. Имя прилагательное // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Морфология. Ч. II. Москва: Высш. школа, 1956. - С. 143-176.

<sup>66</sup> Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Университет, 1980.-91 с.

Kim?/Nimaga?

## 2.5-rasm


${}_n\text{SSG}^m$ ga shaxs va narsaning biror belgi-xususiyatga egalik/egasizlik ma'nosi bilan aloqador bo'lgan har xil ijtimoiy, ruhiy, madaniy holatlarini ifodalovchi va biz shartli ravishda  ${}_n\text{SSG}^e$  ramzi bilan belgilaydigan *boy, molik, ega, sohib, kasal...* kabi ko'p holatlarda tub so'zlar juda yaqin turadi. Bu so'zlar imkoniyat ravishda  $O_{obl}$  valentligiga egadir. Bu imkoniyat voqelansa, leksema belgi-xususiyat ma'nosini, voqelanmasa, predmetlik ma'nosini yuzaga chiqaradi. Chunonchi: *Boy gapirdi.* va *Molga???* *boy /kishi/ gapirdi.* Bunday so'zlarni ham ot va sifatlar ichida alohida bir SSGga ajratish lozim bo'lsa kerak, chunki  ${}_n\text{SSG}^e$  ga mansub so'zlar ham ikki turdagi sintaktik qurilmani beradi, deb qabul qilish mumkin:

$N^e/O_{obl}$  – belgi-xususiyat ma'nosining voqelanish qurilmasi;

$N^e/\emptyset$  – predmetlik ma'nosining voqelanish qurilmasi.

Ot turkumi ichida juda katta bir lug'aviy-ma'noviy guruhni tashkil etadigan qurol va har xil moslama-asbob-uskuna nomlari ( ${}_n\text{SSG}^q$ ) leksemalari ham alohida bir SSG tuzadi. Ular  $O_{ad}$  chiqish kelishigi shaklidagi manba ma'nosini ifodalaydigan  $O_{obl}$ li qurilmalarni bera oladi: *olmosni ishlov berishga/berish uchun qo'rg'oshindan keskich.* Buni quyidagi rasmda aks ettirish mumkin. (2.6-rasm):

### Qurol, predmet nomlari SSG strukturasi



## 2.6-rasm

Dori-darmon, biror narsa uchun iloj-chora ma'noli so'zlar (*dori, davo, eritma, han...*) ham, kiyim-kechak nomlari (*ko'ylak, to'n, do'ppi...*) ham shu SSGdan o'rin oladi: *yo'talga o'tlardan dori.*

**Sifat turkumi** ichida SSGlarni ajratishda, eng avvalo, sifatlarning asliy va nisbiy kabi ikki an'anaviy guruhga bo'linishiga e'tibor berish kerak. Bu bo'linish mohiyatan grammatik ahamiyatli bo'lib, ayrim hollarda sifat turkumi so'zlari *-roq* qo'shimchasi bilan birikish/birikmaslik asosida farklanadi<sup>67</sup>. Asliy sifatlarning barchasi chiqish kelishigi ( ${}^a\text{SSG}^a$ ) yoki *-ga/dan ko'ra* morfologik elementli obyekt ( $O_{obl}$ ) bilan birikish qobiliyatiga ega va qiyos-chog'ishtirish ma'nolarini ifodalab,  $O_{obl}$  SSG tarkibli sintaktik qurilmalarni tuza oladi: *...dan chiroyli/go'zal/..., ...dan aqlli/savodli..., ...ga (ko'ra/qaraganda) totli, shirin..., ...dan (ko'ra) qizil/yashil...* Misollar: ***Kundan-da go'zaldir, oydan-da go'zal*** (Cho'lpon); ***Jondan shirin Vatanim, O'zbekistonim*** (Gazetadan); ***Odam toshdan qattiq, guldan nozik*** (Maqol); ***Juda ko'p o'ylar edi: nima, Nafisadan ko'ra go'zalroq qizlar kammi?!*** (N.Qobul); ***Ha, u sendan ko'ra yoshroq va chaqqonroq*** (SH.Xolmirza); *... bu ishga yigitlarga ko'ra qizlar bo'lgani ma'qul* (N.Narzulla).

${}^a\text{SSG}^a$ , ba'zan nisbiy sifatlarni ( ${}^a\text{SSG}^T$ ) ham *-ga/bilan* morfologik elementli vositasiz obyekt ( $O_{obl}$ ) bilan bog'lanib, o'ziga xos predikativ qurilmalarni hosil qiladi: *stolda hamisha vitaminlarga boy* кўкатлар бўларди (A.Qahhor); *... suv bilan to'la hovuzlar atrofga salqin bagishlar edi* (P.Qodirov); ***nurga to'la Vatanim-onam..., ... majlisda so'zga chechan qiz-yigitlar ham bo'ladi*** (T.Murod); ***respublikaga taniqli paxtakorlar, jahonga mashhur olimlar, dillarni maftun qilgan raqqosayu sozandalar bu yerda ko'p bo'lishgan*** (S.Ahmad).

Har xil ruhiy holat ifodalovchi ( ${}^a\text{SSG}^r$ ) asliy sifatlarni (*xursand, shod, mamnun, mag'rur, masrur, xafa...*) va nisbiy sifatlarni (*g'amgin, uyatli, xandon, o'ychan, qayg'uli, parishon...*) ikki xil obyektli sintaktik kurilmalar hosil qila olishi sababli alohida SSG ajratilishi lozim. Ular tuza oladigan sintaktik qurilmalar  $O^1_{obl}$ ,  $O^2_{obl}$  tarkibiga ega bo'lib, jo'nalish yoki chiqish kelishigi shaklidagi  $O^1_{obl}$  sababmanba ma'nosini voqelantirsa,  $O^2_{obl}$  — qiyos-chog'ishtirish ma'nosiga ega bo'ladi:

<sup>67</sup> Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. - Ташкент, 1983. - 22 с.; Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни тасниф қилиш асослари: Филол. фан. номз.... дисс. Бухоро, 1994. - 174 б.

*bu xatdan onasiga ko'ra qizi xursandroq edi* (Cho'lpon). Bunda *xursand* sifati mohiyatan ikki obyekt bilan bog'langan va ikki so'z birikmasi zanjirini beradi:

a) *xatdan xursand*;

b) *onasiga ko'ra xursand*.

**Son turkumiga** mansub so'zlar ichida ichki SSGlarni ajratish ehtimoldan xoli, chunki son boshqaruvi sifatida – o'zbek tilshunosligida tavsiflanib kelinayotgan hodisalar<sup>68</sup> mohiyatan valentlikka bevosita aloqador emas – *bir, ikki, o'ttiz uch, yuz bir, uchinchi, elliginchi, uchala, to'rtovlon...* kabi so'zlar o'z lug'aviy ma'nosida predmet ma'nosini ifodalovchi so'zga — aniqlanmishga tortilishdan bo'lak bog'lanish zarurati sezilmaydi. Tilimizda mavjud bo'lgan *uchga ikki, to'rtidan uch* kabi birikmalar valentlik asosida emas, tamoman boshqa – kelishik qo'shimchalarining ma'lum holatlarda ixtisoslashuvi – asosida<sup>69</sup> rivojlangan, *qizlarning (qizlardan) biri* kabi hosilalarda ham leksik-semantik valentlik ta'sirini ko'rish munozarali. Fikrimizcha, son turkumini yaxlitlikda bir SSG (nuSSG) deb qabul qilish mumkin.

**Ravish turkumi** ichida SSGlarni ajratish masalasiga kelsak, aytish lozimki, ravishning chegarasi va tarkibi o'zbek tilshunosligida hozirgacha munozarali<sup>70</sup>: formal tilshunoslikda ravish tarkibida beriladigan juda ko'p so'zlar substansial talqinda sifat va ot tizimidan o'rin oladi. Shunday bo'lsa ham, ravish turkumi ichida bir necha SSGlarni (adSSS) ajratish mumkin.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, substansial tahlil nuqtai nazaridan ravish sifatida baholanuvchi tub va soddalashgan so'zlar (ya'ni mutlaqo o'zgara olmaydigan, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalardan hech birini qabul qila olmaydigan so'zlar) ichida zaruriy leksik-semantik valentlikka ega bo'lgan

---

<sup>68</sup> Абдуллаев Ф., Иброҳимова Ф. Ўзбек тилида бошқарув. Тошкент: Ўзбекистон, 1982. -140 б.; Акрамов Т. Именное сказуемое в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1967. 22 с.

<sup>69</sup> Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. - Ташкент: Фан, 1989. – 191 с. "Бу ерда бобнинг навбатдаги бандида кўриладиган морфологик (грамматик) валентлик етакчилик қилади

<sup>70</sup> Сайидрахимова Д.С. Сўз туркумлари тизимида равишнинг ўрни. Ўш, 2005. - 90 б. "Т.Асадов ўз тадқиқотида ўзбек формал грамматикаси бўйича дарслик ва қўлланмаларда, 2 жилдли "Ўзбек тилининг изоҳли луғати"да равиш сифатида берилган 1210 сўзнинг рўйхатини беради ва шулардан бир нечтасининг субстанциал талкинда, том маънода, ўзгармас сўз равиш бўла олишини қайд этади.

guruhlar ajralib chikmaydi (chunonchi, *endi, boya, hali, juda, jadal, zinhor, zoye, aslo, mutlaqo, darrov, hamisha, xiyla, xiyol, mudom, nuqul, jim, cho‘rt, chirt, tek, sal, ildam...*)<sup>71</sup>. Shuningdek, soddalashgan va bir qator sodda yasama ravishlar, jumladan, /om + -ona =.../, /om, sifat + -lab = .../, /om + -simon/, /om + -chasiga = .../, /kiyim-bosh nomi + -chang/-chan = .../, /arabcha + -an/ -yan = .../ kabi kator ravish yasash derivatsion kolip hosilalari ham leksik-semantik zaruriy va hatto fakultativ valentlikka ega emas. Lekin ayrim sodda yasama va ko‘shma yasama ravishlar fakultativ valentlikka ega. Chunonchi, /sanok son + talab = sodda yoki tarkibli ravish/ so‘z yasash kolipi hosilalari (*bittalab, o‘ntalab, yigirma bittalab, bir yuz yigirmatalab...*) alohida bir SSG ( $_{ad}SSS^{talab}$ )ni tashkil etishi mumkin. Bu ravishlar chiqish kelishigi shaklidagi obyekt ( $O_{obl}$ ) bilan fakultativ boglanish valentligiga ega, ya’ni /  $O_{obl} \leftarrow {}_{ad}SSS^{talab}$  / tarkibli sintaktik kurilmalar bera oladi: *kizlar gullardan uch talab dastalashdi* (J.Abdullaxanov).

/ot+-ma-ot/ (-ma boglovchili takror otlar, ular tilimizda juda ko‘p, chunonchi, *yuzma-yuz, yonma-yon, yelkama-yelka, tilma-til, og‘izma-og‘iz, ko‘zma-ko‘z, orqama-orqa, qorama-qora, oyma-oy, kunma-kun...*) ravish yasash kolipi xosilalari aloxida SSGni tashkil kiladi – bunda  ${}_{ad}SSS^{ma}$  bilan ko‘makchili yoki jo‘nalish kelishigi shaklli obyekt ( $O_{obl}$ ) bilan birikishni talab qilib, / $O_{obl} {}_{ad}SSS^{ma}$ / tarkibli sintaktik kurilmalar bera oladi: *Uch dushman bilan yakkama-yakka olishdiya* (A.Qodiriy); *muallimi bilan yuzma-yuz bo‘ldim* (SH.Xolmirzayev); *Rais bilan orqama-orqa keldi* (A.Qahhor); *Qalandarov bilan yakkama-yakka qolishdi* (A.Qahhor); *Shahlo bilan yuzma-yuz o‘tirmaslik uchun narigi stolga o‘tdi* (Gazetadan); ... *guvohga yuzma-yuz o‘tirdi va unga tik qaradi* (Shuhrat).

Biz o‘ta tafsiliy va yuzaki ravishda ism so‘z turkumlariga mansub so‘zlarning 9ta SSG guruhini ajratgan va har birining sintaktik imkoniyatlarini namoyish qilishga harakat qildik. Takror aytamizki, ismlar ichida SSGlar va ularning sintaktik imkoniyatlarini tavsiflash fanimizda endi boshlandi va biz

<sup>71</sup> Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш: Филол. фан. номз.... дисс Тошкент, 2009. - 182 б.

amalga oshirayotgan ish, tom ma'noda, kashshofona, ilk, tetapoya qadamdirki, shunga ko'ra biz mazkur ishimizda mavzu mohiyatini to'la-to'kis yoritish oldik, deya olmaymiz. O'ylaymizki, kelajakda bu guruhlar soni ko'payadi, tarkibi qayta ko'riladi, sintaktik qobiliyati aniqlanadi, kompyuter lingvistikasi (xususan, generativ lingvistika, nutqiy birliklarni avtomatik qayta ishlash va qayta voqelantirish ehtiyojlari) taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqlikda ularni modellashtirish, nutqiy hosilalarni (matnda) avtomatik tarzda yaratish va nutqda qayta voqelantirish (tug'dirish) bo'yicha juda katta ishlar amalga oshiriladi. Lekin tanlangan mavzu - sintaktik qurilmalarning substansial (ontologik asoslarini ochib berish uchun biz nafaqat fe'l turkumida SSGlar ajratilishi mumkin va lozimligini, balki bunday guruhlar ism turkumlari ichida ham mavjudligini, umuman olganda, avtomatik tarjimayi nutqni avtomatik tarzda qayta yaratish uchun so'z turkumlari, so'zlarning ma'noviy guruhlar bilan bir qatorda ularning SSGlarini ham ajratish ahamiyatli ekanligini ko'rsatish uchun ismlar ichida bir qator SSGlarni ochib berdik. Shularga asoslanib, bunda ism turkumlarida ham sintaktik qurilma tarkibini belgilash qobiliyatiga ko'ra SSGlar ajratilishi zarur va mumkinligini ta'kidlash hamda bunday SSGlarning namunalari berish bilan chegaralanamiz.

## **2.2. Grammatik kategoriyalarning sintaktik qurilma tuzilishiga ta'siri**

So'z o'zgartirish ayrim jihatlari bilan so'z yasalishi bilan to'qnashadi va, o'z navbatida, so'z yasalishi so'zning ma'nosini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lganligi sababli uning semantik valentligiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Lekin morfologik shakllarning valentligi bu bilan cheklanib qolmaydi. O'zbek tilining morfologik kategoriyalari so'z valentligi (birikuvchanligi)ga ta'siri jihatiga ko'ra ikki guruhga ajratilishi mumkin. Morfologik kategoriyalarning so'zning birikuvchanligiga ta'siriga ko'ra sintaktik va nosintaktiklarga ajratilish ildizlari arab va hind tilshunosligiga borib taqaladi. Gap tarkibida, so'z birikmasi ichida ularning tarkibiy qismlarini bir-biriga bog'lashga xizmat qiladigan morfologik shakllar **sintaktik kategoriyalar**, so'zlarni bir-biriga bog'lashga emas, ularga muayyan qo'shimcha ma'no berishga xizmat qiladigan shakllar **nosintaktik kategoriyalar** deb tasnif etiladi.

Buning yorqin namunasini orttirma nisbat shaklida ko‘rish mumkin. Chunonchi, *yurmoq* fe’li o‘timsiz bo‘lib, vositasiz to‘ldiruvchi bilan birika olmaydi, lekin bu fe’lning orttirma nisbat shakli bunday qobiliyatga ega: *M a shin a yurdi → H a yd o vchi m a shin a ni yurgizdi*. Demak, biz xulosa qila olamizki, orttirma nisbatning valentlik qobiliyatlaridan biri o‘timsiz fe’llarni o‘timli fe’llarga aylantirishdir.

O‘timli fe’llarga qo‘shilgan orttirma nisbat qo‘shimchasi o‘timli fe’lning harakatga undaladigan bajaruvchi (subyekt) ma’noli vositali to‘ldiruvchi bilan birikish imkoniyatini kengaytiradi. Chunonchi, *Mohigul kir yuvdi → Onasi Mohigulga kir yuvdirdi*. *Yuvmoq* fe’li orttirma nisbat shaklini qabul qilmasdan oldin shu mazmundagi vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikish qobiliyatiga ega emas edi. Chunki *yuvmoq* fe’li bilan birikkan jo‘nalish kelishigidagi vositali to‘ldiruvchi harakatga undaladigan bajaruvchi ma’nosiga emas, balki tamoman boshqa ma’noga - adresat (harakat yoki uning natijasi kimga/nimaga qaratilgan obyekt) yoki maqsad holi ma’nosiga ega bo‘la olar edi: *Mohigul buvisiga/buvisi uchun kir yuvdi*.

Bundan xulosa qilish mumkinki, orttirma nisbat shakli so‘z valentligini bitta aktantga oshiradi<sup>72</sup>. Bu aktant gapda vositasiz yoki vositali to‘ldiruvchi mavqaida keladi va buni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

### 3.2-rasm

#### Orttirma nisbat shakli so‘z valentligi

orttirma nisbat so‘zshakli	–	aniq nisbat so‘zshakli valentligi	=	orttirma nisbat shakli valentligi yangi vositali yoki vositasiz agentiv to‘ldiruvchi
-------------------------------	---	---	---	--

Demak, morfologik shaklning valentlikka ta’siri ko‘rinishlaridan ma’lum bir aktantga bir so‘zning leksik-semantik valentligini oshirishdan iborat (**1-holat**).

<sup>72</sup> Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантико синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке // Советская тюркология. - Москва, 1979. - №3. - С.48-56.

Shunday – so‘zning leksik-semantik valentligini kengaytirish –xususiyatini egalik qo‘shimchalarida ham ko‘rish mumkin. Egalik qo‘shimchali so‘zshakl qaratqich kelishikli so‘zshakl bilan birikish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Chunonchi, *kitob* leksemasi qaratqich kelishikli tobe bo‘lak bilan birikish qobiliyatiga ega emas. Egalik qo‘shimchali *kitobim/kitobing/kitobi/kitobimiz/kitobingiz/kitoblari* so‘zshakllarida esa bunday qobiliyat mavjud va ular qaratqich kelishikli aniqlovchi bilan birikish imkoniyati – [I<sup>G</sup>]ga ega. Buni quyidagi jadvalda berish mumkin (Qarang: 3.3-rasm):

### 3.3-rasm

Egalikli so‘zshakl valentligi	–	egaliksiz so‘zshakl valentligi	=	egalik morfologik shakli valentligi = qaratqichli aniqlovchi
-------------------------------------	---	--------------------------------------	---	---

Boshqa holatda olib ko‘raylik: *Mohigul kir yuvdi* → *Kir yuvildi*.

Bu holatda biz ortirma nisbat bilan bo‘lgan hodisaning aksini - o‘timli fe‘lning vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikish qobiliyatini yo‘qotishini ko‘rgandek bo‘lamiz. Lekin mohiyatan holat o‘zgacha. Chunki *yuvildi* so‘z shakli *yuvmoq* fe‘lidan farqli ravishda vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikish qobiliyatiga ega bo‘lmasa-da, yangi bir agentiv ma‘noli vositali to‘ldiruvchi bilan kengayish imkoniyatini beradi. Chunonchi, *Kir Mohigul tomonidan/tarafidan yuvildi*. *Yuvmoq* vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikish qobiliyatini majhul nisbat shakli ta‘siri ostida yo‘qotadi, lekin yangi turdagi vositali to‘ldiruvchi bilan birikish qobiliyatini qabul qiladi. Xuddi shu hodisani *Shamol eshikni ochdi*. *Eshik shamol bilan ochildi* turdagi hosilalarda ham ko‘rish mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qila olamizki, morfologik shakl valentlik qobiliyatining **2-holati** so‘zshakl valentligining leksema valentligiga nisbatan aktantlar miqdori jihatidan emas, balki sifati (turi) jihatidan o‘zgarishidir. Shunday xususiyatni birgalik nisbatida ham ko‘rish mumkin, ya‘ni sifat o‘zgaradi: *Buvisiga kir yuvdi* – *Buvisiga kir yuvishdi*.



Boshqa turdagi **3-holat**ni ko‘rib o‘taylik: *Mohigul qo‘l-betini yuvdi - Mohigul yuvindi*. Bu holatda *yuvinmoq* fe‘li vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikish qobiliyatini tamoman yo‘qotadi va o‘timsiz fe‘llarga orttirma nisbat shakli qo‘shilganda sodir bo‘ladigan holatning aksi yuz beradi.

*Mohigul o‘qidi va yozdi — Mohigul o‘qib yozdi (4-holat)*. *O‘qib* so‘zshakli *o‘qimoq* so‘zidan farqli ravishda boshqa bir fe‘lga tobelanish, bog‘lanish [ $Z^G$ ]ga ega. Bunday valentlik *o‘qimoq* shaklining o‘zida zaruriy sifatida yo‘q edi, lekin imkoniyat sifatida ( $I^G$ ) unda mavjud edi. Morfologik shakl valentligi leksema zoti (mohiyati)da mavjud bo‘lgan imkoniyatni zaruratga aylantiradi.

Biz yuqorida leksemaning lisoniy leksik-semantik valentligiga grammatik shakllarning ta’siri ustida to‘xtalib, keltirilgan ayrim misollar asosida ularning valentlikka ta’siri ko‘rinishlarini ajratishga harakat qildik va quyidagi holatlar kuzatildi:

1. Morfologik shakl valentligi so‘zning leksik-semantik valentligini aktantlar hisobiga oshiradi (*Ilhomning kitobi*).


2. Morfologik shakl valentligi leksema valentligiga nisbatan aktantlar miqdorini emas, sifatini o‘zgartiradi (*Ilhom xatni yozdi -Xat Ilhom tomonidan yozildi*).

3. Morfologik shakl valentligi leksema valentligiga nisbatan aktantlar miqdorini kamaytiradi (*O‘nta kitob ... kitoblar*).

4. Morfologik shakl valentligi leksema zoti (mohiyatida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni “qo‘zg‘atadi”, imkoniyatni zaruratga aylantiradi (*Ilhom o‘qidi va yozdi - Ilhom o‘qib yozdi*).

**Leksemaning semantik-sintaktik valentligiga subyektiv baho kategoriyasi shakllari ta’siri.** Hozirgi o‘zbek tilidagi *-cha, -gina, -choq, -chak, -chiq, -loq, -jon, -kon, -xon, -gina* kabi shakllar, asosan, ot va sifat tarkibida o‘rganilib, subyektiv baho shakllari atamasi bilan yuritiladi. Turkologiyada, xususan, o‘zbek tilshunosligida bu kategoriya shakllari va ulardan har birining ma’noviy, uslubiy xususiyatlari, ularning hosil bo‘lish yo‘llari xususida salmoqli

ishlar qilingan<sup>73</sup>. Darslik va qo‘llanmalarda subyektiv baho kategoriyasi shakllari turlicha nomlar – “nokategorial shakllar”<sup>74</sup>, “modal formalar”<sup>75</sup>, “noparadigmatik morfemalar”<sup>76</sup>, “lug‘aviy shakllar”<sup>77</sup>, ostida atroflicha o‘rganilgan. Bu hosilalarning nomlanishlari masalasida izoh berish shart: “nokategorial shakllar” (A.Hojiyev, U.Tursunov va b.) va “noparadigmatik morfemalar” (SH.Rahmatullayev) kabi nomlanishlar bo‘lib, bu hosilalarni “nokategorial”, “noparadigmatik” deb talqin etish, masalan, *kitobcha* yoki *Salimaxon* shakli *kitob* va *Salima* shakllaridan uzilgan, ular bilan paradigmatic alokada turmaydi, deyish bilan barobardir. Vaholanki, bu tafakkur uchun xos xususiyat emas. Shuning uchun subyektiv baho shakllarini biz paradigmada, chunonchi,



tarzida tahlil qilamiz va diqqatimiz asos shakl (“shaklsiz” holat)ning valentligiga qo‘shimcha tarzda qanaqa o‘zgartirishlar kiritishini, boshqacha qilib aytganda, hosila shakl (ko‘shimchali shakl)lar hamda asos semantiksintaktik valentliklari orasida kanday farq mavjudligini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Bu qo‘shimchalar vositasida yasalgan shakllar subyektiv baho shakllarining morfologik usul bilan ifodalanishi deb qabul qilinadi. Tabiiyki, bunda biz subyektiv baho shakllarining o‘ziga xos bir xususiyati – ularda ixtisoslashish va

<sup>73</sup> Абдуллаев А. -гина интенсивлик ифодаловчи аффикс сифатида//Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1973. - № 5. – Б. 73-75.; Айюб Ғуломовнинг илмий мероси (3-китоб). Морфемикага оид мақолалар. - Тошкент: Университет, 2007. - 135 б.;

<sup>74</sup> Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент, Ўзбекистон, 1992. - 399 б.; Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультети студентлари учун дарслик. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. - 448 б.

<sup>75</sup> Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. – Тошкент: Фан, 1975.

<sup>76</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy ozbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006.-464 b.

<sup>77</sup> Ne'matov H., G'ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. - Toshkent: Oqituvchi, 2001. - 192 б.

leksikalizatsiyaning o‘ta kuchliligini inobatga olib, “yasama shakl” va “yasalgan shakl” tushunchalarini izchil farqlagan holda fikr yuritamiz. “Yasama shakl” va “yasalgan shakl” tushunchalarini farqlashda biz professor H.Ne‘matov izidan borib<sup>78</sup>, “yasama shakl” deganda lug‘aviy ma‘nosi shu shakl uchun asos bo‘lgan so‘zdan farqlanmaydigan, shuning uchun umumiy ma‘nosi (lug‘aviy asos + qo‘shimcha = asos shaklning lug‘aviy ma‘nosi + subyektiv baho qo‘shimchasining ma‘nosi) qolipi asosida voqelanadigan hosilalarnigina tushunamiz. Chunonchi, *qo‘l-qo‘lcha: Bolaning qo‘lidan ushlab borardi – Bolaning qo‘lchasidan ushlab borardi* yoki *Salimaxon, ketdik ~ Salima, ketdik*.

Nutqiy ma‘nosi yuqorida ko‘rsatilgan qolip asosida hosil bo‘lmay, ixtisoslashgan va to‘liq leksikalizatsiyalashgan hosilalar, chunonchi, *rumolcha, ko‘rpacha, olcha, qizilcha, bogcha, qo‘g‘irchoq*, shuningdek, subyektiv baho qo‘shimchali antroponimlar (*Oyxon, Norjon, Norbibish, Quljon, Amirxon...*) yasalgan (yaxlitlangan) deb sanalib, subyektiv baho shakllari paradigmasida baholanmaydiganlar sifatida qaraladi. Biz subyektiv baho qo‘shimchalarining valentlikka ta‘sirini yasalgan shakllarda emas, faqat yasamalar tarkibidagina tahlil etishimiz mumkin.

Subyektiv baho ma‘nosining fonetik (*ota: jon, Salim – Palim...*), leksik (*pari, poshsho, bek, begim...*), morfologik (*gulcha, qizaloq, qizgina, Ilhomjon...*), sintaktik yo‘llar bilan ifodalanishi ko‘pchilikka ayon. Zotan, subyektiv bahoning ifodalanishida morfologik usul eng mahsuldor hisoblanadi. “O‘zbek tilida “subyektiv baho” ifodalovchi shakllardan xarakterlisi kichraytirish va erkalatish ma‘nolarini bildiruvchi affikslardir”<sup>79</sup>. Ma‘lumki, kichraytirish ma‘nosini ifodalashda, odatda, *-cha, -choq, -loq/-aloq, -chak, -chiq* shakllari qo‘llaniladi. ***-cha*** elementi ham jonli, ham jonsiz predmet nomlariga qo‘shilib, kichraytirish, erkalash, kamsitish ma‘noli otlar hosil qiladi: *kitobcha, yetimcha, otincha, o‘g‘ilcha* kabi. *-chaning* ma‘nodoshi bo‘lgan *-choq* shaklining, birinchidan,

<sup>78</sup> Неъматов Ҳ.ф. Сўз яшаш колипи, ясалган ва ясама сўз хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2007.- №1.-5. 17-22.

<sup>79</sup> Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм // Ғ.Абдураҳмонов таҳрири остида. - Тошкент: Фан, 1966. Т.I. – 390 б.; Т.II. - 508 б.

birikish qobiliyati ancha cheklangan, ikkinchidan, faqat jonli predmet nomlariga birikadi: *toychoq*, *qo'zichoq* singari. Mazkur shakllarning birikish xususiyatini kuzatganda, ularning so'z leksik-semantik valentligiga ta'sir etishining guvohi bo'ldik. *Kitob*, *daftar*, *Ilhom*, *qiz* kabi birliklar *-cha* qo'shimchasi bilan shakllanganda, ularning leksik-semantik valentligida, birikishida o'zgarish ro'y beradi. Chunonchi, o'zbek nutqida *katta qiz*, *katta kitob*, *yirik qush* kabi birikmalar erkin qo'llaniladi. Ammo mazkur so'zlar *-cha* shaklini olgach, leksemaning leksik semantik valentligi sifat jihatdan o'zgaradi, ya'ni *katta kitobcha*, *yirik qushcha*, *katta Ilhomcha* nutqimiz uchun xos emas. Demak, *-cha* leksemalarning ayrim so'zlar bilan birikish qobiliyatini cheklaydi, lekin boshqa bir turdagi so'zlar bilan birikish qobiliyatini kuchaytiradi – asos shakl birikish qobiliyatida o'zgarish yasaydi. Ba'zan *-cha* shaklini olgan so'zlar kichiklik bildiruvchi *jajji*, *kichkina*, *mayda* singari so'zlar bilan kengayishga ehtiyoj sezadi: *kichik kitobcha*, *mayda likopcha*, *jajji bolacha* kabi. Nutqimizda ba'zan “soqolli chaqaloq”, “aqlli tentak” kabi birikuvlar ko'chma ma'noda qo'llanilganidek, “katta o'g'ilcha”, “katta Ilhomcha” tipidagi birikmalarni nomeyoriy hol sifatida baholash mumkin. *-gina*, *-kina*, *-qina* shakllarida kichraytirish bilan birga erkalash ma'nosi ham mujassamlashganligini bilamiz.

Kichraytirish ma'nosidagi *-gina* hamda erkalash ma'nosidagi *-gina* shakllarining farqini ularning morfologik shakl valentligidan bilib olsa ham bo'ladi. Chunonchi, *bolagina*, *qizgina*, *enlikkina*, *kichikkina* so'zlarida *-gina* kichraytirish ma'nosini hosil qilib, ularning miqdor ifodalovchi ayrim sonlar bilan birikishini ta'minlaydi: *ikki enlikkina*, *uch qizgina*, *to'rt bolagina*. Ammo erkalash ottenkali *-gina* shaklida bunday birikish cheklangan bo'lib, o'zidan keyin egalik shakllarining birida qo'llanilishga xoslangan: *bolaginam*, *qo'zichoqqinam*, *qizginam*.

Iliq munosabatni ifodalovchi subyektiv baho shakllari sifatida talqin etiladigan va *-jon*, *-boy*, *-bek*, *-qul*, *-xon*, *-oy*, *-gul*, *-bonu*, *-beka*, *-bibu*, *-niso*,

-*poshsho* komponentli hosilalar ham erkalash shakllari sifatida manbalarda qayd qilingan<sup>80</sup>. Yuqorida qayd qilingan shakllar iliq munosabatni ifodalashga xizmat qilganligi uchun soʻzga qoʻshilganda uning leksik-semantik valentligi ijobiy maʼnoli soʻzlar, his-hayajonli soʻzlar, undovlar bilan kengayishga moyilligi bilan ajralib turadi:

1. *Erbuta nuqul: “Togʻajon, aylanay, togʻajon! (Taʼkid bizniki - diss.)” – deb yigʻlar edi* (M.Ismoilij).

2. *Takror-takror shivirlayman, ozurdajon,*

*Otginangdan aylanayin, Buxorojon* (SH.Sulaymon).

Yuqoridagi bayondan koʻrinib turibdiki, “yasama” subyektiv baho shakllarining valentligi asos shakldan shakl yasovchi qoʻshimchalar maʼnosi (kichraytirish, erkalash, ijobiy munosabat)ga zid boʻlgan soʻzlar bilan birikishni cheklaydi, ularning maʼnosiga muvofiq boʻlgan soʻzlar bilan birikishni neytrallikdan — imkoniyat, maqbullik, zaruriyat darajasiga koʻtaradi. Boshqacha aytganda, lugʻaviy asos semantik-sintaktik valentligiga miqdoriy emas, sifatiy oʻzgarish beradi.

## II bob boʻyicha xulosa

Bu bobda koʻrib oʻtilgan masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Valentlik tushunchasi, hodisasi va nazariyasi substansial tilshunoslik shakllanishidan ancha oldin ishlab chiqilgan boʻlishiga qaramay, leksemaning nutqda birikuvchanlik, boshqa lisoniy birliklar bilan qoʻshilib kengayish, maʼno va vazifa qobiliyatlarini yuzaga chiqarish zotiy imkoniyati masalasini oʻrtaga qoʻyganligi sababli tilga substansial yondashish tamoyillari bilan uygʻundir. Bir soʻz bilan aytganda, valentlik nazariyasi til qurilishi tadqiqiga substansial yondashish ibtidosi sanalishi mumkin. Shuning uchun, bir tomondan, substansial tadqiq asoschisi professor S.N.Ivanov oʻzining ilk tadqiqotlaridan boshlab,

---

<sup>80</sup> Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. - Ташкент: Фан, 1948. - 283 с.; Турсунов У. ва б. Ҳозирги узбек адабий тили. - Тошкент, Ўзбекистон, 1992. - 399 б.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006.-464 b. Тошкент,

valentlik nazariyasi tamoyillarini to‘la-to‘kis qabul qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, valentlik nazariyasidagi qator chigal masalalar — jumladan, valentlik nazariyasining markaziy muammolaridan bo‘lmish semantik va sintaktik, lisoniy va nutqiy valentlik munosabatlari – yechimi substansial tilshunoslikda, jumladan, R.Rasulov va bu olimning izdoshlari ishlarida berildi. Lekin, sintaktik qurilmalar tarkibi va strukturasi belgilashda, ularning substansial mohiyatini ochishda valentlik nazariyasining o‘zigina emas, balki so‘zlarni semantik guruhlariga birlashtirib, tahlil etish usullarini bu nazariya bilan birlashtirish asosida ishlab chiqilgan yo‘l va u asosda ajratiladigan so‘zlarning SSGlari ahamiyatlidir.

SSGlari so‘zlarning sof ma’noviy birlashmalaridan har biri SSG uchun umumiy bo‘lgan integral sintaktik qobiliyat – nutqiy voqelanishda tarkib va komponentlararo munosabatlari ayni bir xil sintaktik qurilmalar bera olishi bilan ajralib turadi. SSGlarni ajratish va ularning xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilish tilshunoslikda yangi soha bo‘lib, bu yo‘nalishdagi izlanishlar o‘z jiddiy tadqiqotchilarini kutmoqda. Zeroki, leksikaning tizimiy xususiyati va valentlik nazariyasi nuqtai nazaridan o‘rganilgan so‘zlarning har xil kattalikdagi sof ma’noviy guruhlarini (LMG, lug‘aviy mavzuviy to‘da, to‘plam va hatto maydonlar) o‘z ichida valentlik xususiyatlari turli-tuman bo‘lgan birliklarni o‘z ichiga oladi va ularning har biri nutqiy voqelanishda xilma-xil sintaktik qurilmalar tuzadi. SSGlar esa aynan shu xususiyati – ayni bir xil sintaktik qurilmalar bera olish qobiliyati va xususiyati bilan birlashadi, shuning uchun tarkib jihatdan LMGlardan tamoman farq qiladi.

So‘zlarning eng katta SSG sifatida - an’anaviy so‘z turkumlari qaralishi mumkin. Har bir so‘z turkumi o‘ziga xos turkum valentligiga ega va bu qobiliyat shu so‘z turkumiga turkum ma’nosidek umumiy va bir xildir. Turkum valentligi shu turkumga mansub bo‘lgan barcha so‘zlar va turkum ichidagi SSGlar uchun umumiy qobiliyat sifatida yuzaga chiqadi va turkum ichra SSGlarni ajratish uchun asos (farqlovchi, differensial) emas, balki umumlashtiruvchi (birlashtiruvchi, integral) belgi mavqeida bo‘ladi. Har bir so‘z turkumi, o‘z navbatida, SSGlarga ajraladi. Jumladan,

a) fe'l turkumi ichida SSGlar tadqiqotchi A.A.Salkalamanidze tomonidan ajratilib, ilk bosqichda tavsif etilgan, lekin hali qator masalalar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda;

b) ism (ot, sifat, son, olmosh, ravish) turkumlari ichida SSGlarni ilk va o'ta yuzaki ko'rinishda ajratishga intilish ularda ham valentlik xususiyatlari va bera oladigan sintaktik qurilmalari o'xshash bo'lgan, ya'ni ma'lum darajada ham ma'noviy, ham sintaktik jihatdan uyg'un xususiyatlarga ega bo'lgan lug'aviy birlashmalarni farqlash hamda tavsiflash mumkinligini ko'rsatdi. Biz hozircha bu so'z turkumlari ichida  ${}_nSSG^h$ ,  ${}_nSSG^k$ ,  ${}_nSSG^m$ ,  ${}_nSSG^e$ ,  ${}_nSSG^q$ ,  ${}_aSSG^a$ ,  ${}_aSSG^T$ ,  ${}_{nu}SSG$ ,  ${}_{ad}SSG^{talab}$ ,  ${}_{ad}SSG^{ma}$  kabi SSGlarni ajratish va ular tuza oladigan sintaktik qurilmalarning tarkibi modellarini berishga muvaffaq bo'ldik. Lekin bu sohadagi ishlar ancha sodda va bo'lg'usi tadqiqotlarda ular aniqlashtirilishi, to'ldirilishi va takomillashtirilishi lozim. Lekin fe'llar ichida ajratilishi mumkin bo'lganidek, ism turkumlari ichida ham SSGlarni ajratish va ular nutqda bera oladigan sintaktik qurilmalarning umumiy modellarini berishga to'la imkoniyat borligini ta'kidlash joiz.

Yuqorida aytilganidek, so'z turkumlari ichida ajratiladigan bunday SSG – lingvistik modellashtirish, kompyuter lingvistikasi, matnni avtomatik tahlil qilish, mashina tarjimasi va nutqni avtomatik qayta bunyod qilish (porojdeniye rechi) modellarini ishlab chiqishda juda katta ahamiyatga ega.


### III BOB. O‘ZBEK TILIDA OTLASHGAN SO‘ZLARDA GRAMMATIK VALENTLIK VA UNING SINTAKTIK QURILMA TUZILISHINI BELGILASHDAGI TA’SIRI

#### 3.1. O‘zbek tilida otlashgan so‘zlar valentligi va ularning o‘ziga xos jihatlari

Tilga substansial yondashish nafaqat lug‘aviy shakllarda, balki morfologik (grammatik) shakllarda ham valentlik qonuniyatining mavjudligi haqidagi fikrni ilgari surishga asos bo‘la oladi. Tilshunoslikda **grammatik valentlik** tushunchasi grammatik shaklning ma’noviy va sintaktik tomonini dialektik birlikda ko‘rish natijasida paydo bo‘ldi<sup>81</sup>.

Leksemalar kabi grammatik shakllar ham valentlikka ega bo‘lib, ular leksema valentligini o‘zgartirishi, unga ta’sir qilishi mumkin. *Grammatik valentlik deganda morfologik shakl va sintaktik mavqe (pozitsiya)ning o‘ziga xos birikuvchanligi, boshqa so‘z yoki bo‘lak bilan kengayishni talab qilishi va leksemaning semantik-sintaktik valentligiga ta’siri, uni o‘zgartirishi tushuniladi.* Boshqacha aytganda, grammatik (morfologik) shakllarni hosil qilishga xizmat qiladigan vositalar va affiksial morfemalarning boshqa bo‘laklar bilan birikish, leksik-semantik valentlikka ta’sir qobiliyati grammatik shakl valentligidir\*. Quyida tarkibida turli xil grammatik shakllar mavjud bo‘lgan so‘zshakllarning birikuv imkoniyatlarini kuzataylik. (Qarang: 3.1-rasm)

#### So‘z shakllarning birikuv imkoniyatlari



<sup>81</sup> Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап курилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. Тошкент, 1997. - 22 б.; Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва семантик имкониятлари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. - Тошкент, 1996. - 23 б.; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. - Ташкент, 1989. - 191 с. "Биз грамматик валентлик ҳамда морфологик шакл валентлиги атамаларини тенг қийматли синонимлар сифатида қўллаймиз ва бунинг назарий асослари навбатдаги бобда очиб берилди.



-----


3.1-rasm

ilmiy

qiziqarli

ko'p

yuzta




3.2-rasm

-----  
ko'p

qo'qqisdan

tinglovchilarni



Ushbu so'zshakllar birikuviga e'tibor berilsa, [-lar] va [-dir] grammatik ko'rsatkichlarining *kitab* hamda *kulmoq* leksemalarining birikish imkoniyatlariga ta'sir etganligini fahmlash mumkin. *Kitob* leksemasining valentligi ko'plik son shakli [-lar] hisobiga *kitoblar* so'zshaklida toraygan bo'lsa, *kulmoq* leksemasida birikuv imkoniyatlari [-dir] ortirma nisbat shakli hisobiga *kuldirmoq* so'zshaklida kengaygan. Bundan tashqari, *kitab* leksemasi [-im] egalik morfemasi bilan shakllantirilganda, *kitabim* so'zshaklida *mening* so'zshakli bilan birikishga

imkoniyat tugʻiladi: *mening kitobim*. Bunday xususiyat (yaʼni soʻzshaklda lisoniy, leksik-semantik valentlikning oʻzgarishi)ni nafaqat shaxs-son yoki egalik, balki boshqa turdagi qoʻshimchalarda ham kuzatish mumkin. Chunonchi, *keldik* shakllangan – tushlangan feʼlidagi [-k] I shaxs, koʻplik son qoʻshimchasi *biz* olmoshiga; *oqayotgan* soʻzshaklidagi hozirgi zamoni ifodalashga xoslangan - *yotgan* shakli ism bilan birikishga ehtiyoj sezadi. Bu esa turkiy tillarning grammatik, xususan, morfologik shakllarda ham valentlikni, grammatik shaklning leksemaning leksik-semantik valentligiga taʼsirini alohida lisoniy hodisa sifatida ajratish imkoniyatini beradi va uning tadqiqini talab qiladi. Ikkinchi tomondan, ishimizning birinchi bobida koʻrib oʻtganimizdek, mohiyat (lisoniy birlik) hodisa sifatida voqelanish (nutqiy birlikda oʻz zotida ontologik yashiringan imkoniyat sifatida mujassamlashgan xususiyatni, qobiliyatni maʼlum taʼsirlar asosida xususiy bir koʻrinishda voqelantiradi. Demak, muayyan soʻzshaklda leksik-semantik valentlik oʻzgarar ekan, shu xususiy shaklning umumiylikida (yaʼni grammatik, morfologik shaklda, kategorial lisoniy birlikda) valentlik, leksik-semantik valentlikka taʼsir etish qobiliyati ham mavjud. Bu – hodisaga substansial yondashishning oddiy talabi va biz ayni mana shu hodisani asoslash uchun ishimizning 1-bobida bu haqda batafsil fikr yuritdik. Shuning uchun til qurilishi talqiniga substansial yondashish grammatik shakllarda ham valentlik qobiliyatini farqlash va uni atroflicha tadqiq etishni talab etadi. Ishimizning ushbu bobi mana shu masalaga bagʻishlanadi.

Maʼlumki, turkiy tillarning morfologik shakllari, asosan, affiksatsiya – qoʻshimchalarni koʻshish usuli bilan yasaladi va turkiy qoʻshimchalar flektiv tillarning morfologik formantlaridan farqli ravishda yorqin maʼnoviydir<sup>82</sup> va bu jihatdan leksemalarga oʻxshashdir. Chunonchi, [-lar] koʻplik son shaklining umumiy grammatik maʼnosi, oldingi bobda koʻrib oʻtganimizdek, “boʻlinuvchan noaniq mikdoriy koʻplik” sifatida belgilanar ekan, oʻz-oʻzidan tushunarliki, [-lar]

---

<sup>82</sup> Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения. Имя. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1987. - 170 с.; Глагол. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1990. - С.160.; Гузев В.Г., Насилов Д.М. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие «грамматическая категория» // Советская тюркология. Москва, 1981. - №3. - С. 36-41.

formantli soʻzshakl aniq miqdor ifodalovchi aniqlovchilar bilan birika olmaydi. Birikkanda esa, albatta, okkazionallik – gʻayrimeʼyoriylik sodir boʻladi. Shuning uchun *yuzta kitob, oʻninchi yil* kabi birikmalarda aniqlanmish koʻplik shakli kela olmaydi. *Yuzta kitoblar* birikmasi oʻzbek tili uchun xos emas, *oʻninchi yillar* esa xususiy okkazional yoki ixtisoslashgan maʼnoga ega. Bundan grammatik shakl soʻzning potensial (lisoniy) valentligini oʻzgartirishi – kengaytirishi yoki, aksincha, toraytirishi mumkinligi haqida xulosa chiqara olamiz. Zero, grammatik shakl valentligi va soʻzning potensial (lisoniy) valentligi orasidagi farq grammatik shakl valentligi bilan belgilanadi, degan hukmni ilgari surish mumkin<sup>83</sup>.

Grammatik shakllar kabi sintaktik pozitsiyalar ham oʻziga xos valentlikka ega. Bunda, asosan, ikki mavqeni farqlash lozim: a) hokim mavqe, b) tobe mavqe.

Hokim mavqe ayrim boʻlaklar bilan kengayish fakultativ (imkoniy) valentligiga egadir. Chunonchi, *kitobim* soʻzshakli *mening* aniqlovchi soʻzshakli bilan kengayish, birikib kelish imkoniyatiga ega, shunday kengaytiruvchisiz ham nutqda bemalol voqelana oladi yoki *oʻqidim* soʻzshakli *kitobni, xatni* kabi vositasiz toʻldiruvchi bilan toʻldirilishi mumkin, lekin bularsiz ham nutqda qoʻllanilishi mumkin. Tobe mavqe esa hokim qism bilan birikishni zaruriy valentlik sifatida talab qiladi. Chunonchi, yuqorida keltirilgan misollarimizda *mening* va *kitobni, xatni* soʻzshakllari hokim qimsiz nutqda qoʻllanila olmaydi<sup>84</sup>, mana shu xususiyatlarning barchasi grammatik valentlik sifatida qaralishi lozim.

Grammatik shakl valentligi tilshunosligimizda mutlaqo koʻtarilmagan. Bu zamonaviy yevropaviy tilshunoslik nazariyasi shakllanishiga asos boʻlgan Hind-yevropa tillarining flektiv tabiati – bir necha grammatik shakl/kategoriya maʼnosining bitta koʻrsatkichda mujassamlangan shaklda ifodalanishi bilan bogʻliq boʻlsa ajab emas; sintetik, sinkretik ifoda har bir grammatik shakli kategoriyaga xos maʼno va vazifalarni alohida ajratish va tahlil etishga maʼlum darajada

---

<sup>83</sup> Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап курилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. Тошкент, 1997. - 22 б.; Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва семантик имкониятлари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. Тошкент, 1996. - 23 б.

<sup>84</sup> "Табиийки, суҳбат нутқи учун хос бўлган Қаерга боряпсан? - Мактабга: - Нима ёзаяпсан? - Хат. - Кимга? Опамга каби тўлиқсиз гаплар бундан мустасно.

to'sqinlik qiladi. Agglyutinativ tabiatli turkiy tillarda grammatik shakl/kategoriyaning ko'pincha alohida-alohida formantlar bilan ifodalanishi har bir grammatik shakl/kategoriyaning nisbiy mustaqil hodisa sifatida ajratilib, valentlik qobiliyatini yorqinroq ochish va tavsiflashga imkoniyat beradi.

Xususan, turkiy tillarning sintaktik shakllari (H.Ne'matov, G'.Zikrillayev, H.Latipov, B.Bahriddinova) yoki aloqa-munosabat shakllari deb tasnif etiluvchi kategoriylari<sup>85</sup> grammatik shakllarida valentlik qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Chunonchi, qaratqich kelishigi, albatta, egalik qo'shimchali qaralmishni talab qiladi. Shu asosda biz bemalol ayta olamizki, egalik qo'shimchali qaralmish yoki egalik qo'shimchasi qaratqich kelishigining zaruriy, obligator valentligidir: qaratqich kelishigi shakli egalik qo'shimchali qaralmishsiz qo'llanilmaydi. Lekin egalik qo'shimchalariga nisbatan bunday fikrni ayta olmaymiz. Demak, qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchalarining valentlik – kengayish, boshqa bir birlik bilan birikishga ehtiyoji bir xil emas va bu leksiksemantik valentlikning zaruriy (obligator) va imkoniy (fakultativ) va betaraf (neytral) kabi turlarga ajralishi bilan uyg'undir; qaratqich shaklida egalik qo'shimchalari bilan birikish zaruriy (obligator) valentlik bo'lsa, egalik qo'shimchalarining qaratqich kelishikli shakl bilan birikishi imkoniy (fakultativ) va hatto neytral (bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan) valentlikdir. Faqat bu hodisa endi leksik birlik doirasida emas, grammatik formantga ham aloqadordir.

Aytib o'tganimizdek, grammatik (morfologik) shakl valentligi tadqiqi tilshunoslikda endi boshlanmoqda. *Grammatik shakl valentligi* atamasi va tushunchasidan S.H.Muhammedova doktorlik dissertatsiyasida foydalangan<sup>86</sup>. Olima tadqiqotining 2-bobi ("O'zbek tilidagi harakat fe'llarining semantik valentliklari")da agens, patsiyens, lokalis va emotiv valentliklarni tahlilga tortadi<sup>87</sup>.

---

<sup>85</sup> Бахриддинова Б. Фейл луғавий шакллари тизими. Фейлнинг тур категорияси: Филол. фан. номз.... дисс. - автореф. - Самарқанд, 2002. – 23 б.; Зикриллаев Ф. Истиклол ва адабий тил. - Тошкент: Фан, 2004. - 119 б.; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. Ташкент: Фан, 1989. - 191 с.

<sup>86</sup> Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилидаги ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. Тошкент, 2007.402 б

<sup>87</sup> Муҳаммедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. - Тошкент: Фан, 2005. 122 б.

S.Muhammedova grammatik shakl semantikasining valentligini quyidagicha sharhlaydi:“Bular (grammatik shaklning semantikasi valentligi – izoh bizniki *M.A.*)ga agens, kontragens, patsiyens (zaruriy) va payt (fakultativ) valentliklari kiradi. Fe’l grammatik shaklining semantikasi unda agens, kontragens, patsiyens va payt valentliklarining yuzaga kelishi uchun asos bo’ladi”<sup>88</sup>.

Bu sharhdan ko’rinib turibdiki, S.Muhammedova tadqiqotida grammatik shakl semantikasi valentligi tamoman boshqacha tushunilgan (binobarin, S.Muhammedovaga qadar yuqorida sanab o’tilganlar leksik-semantik valentlikning bir turi sifatida tavsif etilar edi). Buni dissertantning o’zi ham tan oladi: “Agens valentligini I.Qo’chqortoyev va R.Rasulovlar semantik valentliklar qatoriga kiritishadi. Mazkur yirik tadqiqotlar asosida yuzaga kelgan bir qator nomzodlik dissertatsiyalarida ham shu an’ana saqlangan”. Tadqiqotchi agens valentligini grammatik shakl semantikasi valentligi sifatida leksik-semantik valentlikdan ajratish lozimligi haqidagi fikrini quyidagicha asoslaydi: “Aslida rus va Yevropa tilshunosligida agens valentligi mantiqiy valentlik hisoblanadi. Agens valentligi uchun bu to’g’ri, chunki harakatning bajaruvchisi agens bo’ladi. Mazkur tillardagi fe’l-kesimlarda bajaruvchini ko’rsatuvchi morfologik shakl yo’q. Shuning uchun agensning kim yoki nima ekanligi mantiqiy anglashiladi. Ammo bu masalada turkiy tillarda ahvol boshqacha. Ularda kesimning grammatik shaklidan agensning kim yoki nima ekanligi, bir yoki birdan ortiq ekanligi bilinadi<sup>89</sup>. Masalan, *Singlim hozirgina uyidan keldi* gapida fe’l-kesim III shaxs birlik va o’tgan zamon qo’shimchalariga ega. Shunga ko’ra u agens va payt bildiruvchi so’zlar bilan aloqaga kirishadi. Ushbu valentlik fe’lning shakliy va semantik moslashuviga binoan namoyon bo’ldi, ya’ni bu gapda fe’l-kesim ham, agens ham III shaxs birlikni ko’rsatyapti. Fe’l o’tgan zamon ko’rsatkichiga ega va reallashgan hozirgina so’zi ham unga mos. Agar gap *Singlim bilan qizi hozirgina uyidan kelishdi* ko’rinishiga ega bo’lsa, agensni yana bittaga oshirish imkoni tug’iladi.

---

<sup>88</sup> Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2007. - 30б.

<sup>89</sup> Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-жилд.-Т.: ЎЗМУ, 2004.-285 б.

Yoki *Akam kecha bezori bilan rosa do'pposlashibdi* gapida birgalik nisbati agens emas, balki kontragens valentligini yuzaga keltirganini kuzatish mumkin. Ko'rinadiki, fe'lga nisbat, shaxs-son, zamon qo'shimchalarining qo'shilishi leksema lisoniy valentligini o'zgartirdi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, agens valentligi turkiy tillar uchun grammatik shaklning semantikasi valentligi hisoblanadi"<sup>90</sup>.

Tadqiqotchi bunda ikki hodisani — gapning egasi va harakat faoliyati bajaruvchisi (subyektini) — o'zaro aralashtirgandek ko'rinadi. Haqiqatan ham, eganing shaxs-soni va mavjudligi kesimdagi shaxs-son qo'shimchalaridan anglashilib turadi. Lekin fe'lning agens valentligi, prof. R.Rasulov atroflicha ochib berganidek<sup>91</sup>, egadan boshqa pozitsiyalarda ham kela oladi. Shuning uchun agens valentligi bilan gap egasi tushunchalarini aralashtirish mutlaqo mumkin emas. Professor M.Qurbonova, qisman Sh.Akramov, xususan, H.Shokirova<sup>92</sup> tadqiqotlarida ko'rsatganlaridek, ayrim hollarda - fe'l-kesim vazifasida kelganda — semantik valentlikning agens aktanti bilan gapning egasi o'zaro mos kelishi mumkin. Chunonchi, *Biz kitobni o'qidik*. Lekin *Biz o'qigan kitob qiziqarli edi* gapida bunday muvofiqlashuv yo'q. Fe'l agensi va gap egasi mavqeida boshqa boshqa so'zlar kelgan. Shuning uchun grammatik shakl valentligi sifatida agens (shuningdek, kontragens va patsiyens) valentligini ajratish mumkin emas. Agens valentligi leksik-semantik valentlikning bir ko'rinishi bo'lib qolaveradi. Tamoman boshqa holatni — o'timsiz fe'llarning orttirma nisbat shaklida obyekt valentligida (chunonchi, *Xushxabar keldi — Salimjon xushxabar keltirdi*) va o'timli fe'llarning orttirma nisbat shaklidagi agentiv vositali to'ldiruvchisi ("*Salimjon bu xatni yozdi*" — *Karimjon Salimjonga bu xatni yozdirdi*)da ko'ramiz. Bunda patsiyens va vositali agentiv obyekt valentliklari haqiqatdan ham grammatik shakl — orttirma nisbat shakli bilan chambarchas bog'langan va biz ularni alohida bandda tahlil etamiz.

---

<sup>90</sup> Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилидаги ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. Тошкент, 2007. 402 б.

<sup>91</sup> Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. — Тошкент: Фан, 1989. - 142 б.

<sup>92</sup> Шокирова Ҳ. Ўзбек тилида кесимлик шаклидаги шахс актантининг воқеланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. - Тошкент, 2009. -21 б

Shuning uchun bizning talqinimizdagi *grammatik shakl valentligi* atamasi va tushunchasini S.Muhammedovaning *grammatik shakl semantikasi valentligi* atamasi va tushunchasi bilan mutlaqo tenglashtirish mumkin emas.

Bizning talqinimizdagi grammatik shakl valentligi tushunchasining asosi tilshunosligimizda ilk marta M.Abuzalovanning “O‘zbek tilida gapning minimal qolipi ([WPm]) ning nutqda kengayishida ikki omil:

- 1) kesimning lug‘aviy (nominativ) asosi – [W]ning;
- 2) uning grammatik shakli — kesimlik kategoriyasi [Pm]ning nutqda kengayish qobiliyati mavjud degan tezisi tashkil etadi. Gapning grammatik shakl (kesimlik shakllari - [Pm]) asosida kengayishi tom ma’noda grammatik shakl valentligining voqelanishidir. Bu valentlikning voqelanishida kesimning leksik (nominativ) asosi ([W]) mavqeida o‘timli o‘timsiz fe’llar kelganda grammatik shakl (kesimlik kategoriyasi, [Pm]) valentligi bilan fe’lning leksik-semantik valentligining muvofiqligi, mos kelishi (simmetriyasi) va nomuvofiqligi, mos kelmasligi (asimmetriyasi) qisman Muhabbat Qurbonova, Shukurjon Akramov, Havasxon Shokirova ishlarida ko‘rib o‘tilgan edi<sup>93</sup>. Grammatik shakl valentligi muammosi Sh.Shahobiddinova ishlarida ham, B.Mengliyev tadqiqotlarida ham ko‘tarilgan<sup>94</sup>. Lekin bu tadqiqotlarda mazkur masala maxsus tadqiqot manbai bo‘lgan emas va so‘z shaklining funksional (nutqda voqelanish) tomonlari bilan bog‘liq ravishda yo‘l-yo‘lakay eslatib o‘tilgan, xolos. Shuning uchun biz bu masalaga ancha batafsil to‘xtalamiz.

Grammatik valentlik tushunchasi va hodisasini alohida farqlash va tahlil etishni turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida so‘z birikmalarida tarkibiy qismlarning ikki tomonlama aloqasi ham taqozo qiladi. Turkiyshunoslikda bu masala M.B.Balakayev, YE.I.Ubryatova, K.M.Abdullayevlar tomonidan

---

<sup>93</sup> Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап курилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. Тошкент, 1997. - 22 б.; Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (содда гап синтаксиси учун материаллар). Тошкент: ЎЗМУ, 2002. - 117 б.

<sup>94</sup> Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм / Ғ.Абдурахмонов таҳрири остида. - Тошкент: Фан, 1966. Т.I. - 390 б.; Т.II. - 508 б.; Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз. ... дисс. — Самарқанд, 1993.-152 б.

ko‘tarilib<sup>95</sup>, formal-funksional tadqiq tezislarida<sup>96</sup> va shu asosda tadqiqotchi S.A.Nazarovanning izlanishlari<sup>97</sup> natijasida keng yoritilgan edi. So‘z birikmalarida aloqaning ikki tomonlamaligi mohiyati shundan iboratki, birikmaning bir tarkibiy komponenti ikkinchi komponentidan ma’lum bir shaklda kelishni talab qilsa, ikkinchi komponent birinchi komponent shakli bilan birika olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, so‘z birikmasida grammatik shakllarning obligator va fakultativ valentliklari o‘zaro uyg‘unlashadi. Chunonchi, *Salimanning kitobi* so‘z birikmasida birinchi tobe komponent obligator valentlikka ega va egalik qo‘shimchali hokimni talab qiladi, egalik qo‘shimchali hokimsiz meyoriy nutqda to‘liq shaklda voqelana olmaydi. Ikkinchi komponent esa qaratqich kelishigi shaklidagi tobe komponent bilan birikish imkoniyatiga, ya’ni imkoniy valentlikka ega va *Salimanning kitobi* so‘z birikmasida ikki grammatik shakl — obligator valentlikli qaratqich shaklining va imkoniy valentlikli egalik shaklining valentliklari o‘zaro uyg‘unlashadi. Shuning uchun valentlik nuqtai nazaridan *Salimanning kitobi* so‘z birikmasining modelini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: [grammatik shaklning obligator valentligi + grammatik shaklning fakultativ valentligi]. Turkiy tillarda (umuman, turkiy tilshunoslikda desak ham adashmaymiz) grammatik valentlik masalasi endigina tadqiq etilayotganligi sababli biz tilimizda mavjud bo‘lgan so‘z birikmalarining valentlik bo‘yicha qobiliyatlarini to‘la bera olmaymiz, lekin valentlik, asosan, ikki xil: zaruriy (obligator); (qisq. Z) va imkoniy (fakultativ, qo‘shimcha); (qisq. I) kabi ikki asosiy ko‘rinishga ega bo‘lganligi sababli tilimizda so‘z birikmalarining valentlik xususiyatlariga ko‘ra mantiqiy-riyoziy(matematik) turlarini quyidagicha berishimiz mumkin:

1. [Z + Z]
2. [Z + I]
3. [I + Z]
4. [I + I]

Bu mantiqiy-riyoziy turlardan qay birining tilimizda voqelanishi mumkinu, qay biri mumkin emas, alohida tadqiqot manbai bo‘lmog‘i lozim. Lekin bizning

<sup>95</sup> Балакаев М.Б. Современный казахский язык. Синтаксис. Алма-Ата: Наука, 1959. - 235 с.

<sup>96</sup> Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И. и др. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса // Советская тюркология. Москва, 1988. - №4. - С. 3-8.

<sup>97</sup> Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. 21 б.



ishimiz uchun ham bu turlarni hisobga olish zarur. Jumladan, yuqorida ko‘rilganidek, *Salimaning kitobi* so‘z birikmasida grammatik shakllarning birikish qobiliyati: [Z + I].

Juda ko‘p hollarda (aytish mumkinki, nutqda - hamisha), bobning birinchi bo‘limida ko‘rib o‘tganimizdek, leksik-semantik valentlik va grammatik valentlik nutqiy hosila tarkibida birga voqelanadi. Chunonchi, o‘timli fe’llarning obligator valentligi vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikishni tashkil etadi va buni biz  $V^{tr} \quad O^{rec}$  (o‘timli fe’l va vositasiz to‘ldiruvchi) ko‘rinishida bera olamiz. Grammatik nuqtai nazardan biz ayta olamizki, tushum kelishigining zaruriy (obligator) valentligi o‘timli fe’ldir. Lekin bu valentlik leksik-semantik valentlikdir. Agar biz leksik-semantik valentlik turlarini ham  $Z^L, I^L, Z^G, I^G$  sifatida belgilasak\*, “*kitobni o‘qimoq*” birikmasining valentlik chizmasini quyidagicha berish mumkin:  $[Z^G+Z^L]$ .

Valentlikni grammatik va leksik-semantik, ularning zaruriy va imkoniy ko‘rinishlarini  $Z^L, I^L, Z^G, I^G$  kabilarga ajratsak, birikishlarning mantiqiy-riyoziy ko‘rinishlari quyidagicha bo‘ladi (Qarang: 3.1-rasm):

### 3.1-rasm

#### So‘z birikmasi tarkibi birikuvlarining mantiqiy-riyoziy ko‘rinishlari

	$3^L$	$I^L$	$3^G$	$I^G$
$3^L$	$3^L + 3^L$	$3^L + I^L$	$3^L + 3^G$	$3^L + I^G$
$I^L$	$I^L + 3^L$	$I^L + I^L$	$I^L + 3^G$	$I^L + I^G$
$3^G$	$3^G + 3^L$	$3^G + I^L$	$3^G + 3^G$	$3^G + I^G$
$I^G$	$I^G + 3^L$	$I^G + I^L$	$I^G + 3^G$	$I^G + I^G$

Bu mantiqiy-riyoziy turlar til tizimidagi leksik-semantik va grammatik valentliklarning nutq jarayonida hamkorlikda voqelanishini ko‘rsatadi.

Grammatik shakl tilimizda o‘ziga xos valentlikka ega bo‘lsa, u leksik semantik valentlikka, xususan, grammatik shakl/kategoriya valentligi o‘zi qo‘shilib keladigan so‘zning leksik-semantik valentligiga qanday munosabatda turadi, degan savolning qo‘yilishi tabiiydir. Bu masalani boshqacha qilib, leksemaning potensial

leksik-semantik valentligi bilan grammatik shakl valentligi o‘zaro qanday munosabatda yoki shu leksema ma’lum bir morfologik shakl (so‘zshakl ko‘rinishi)da voqelanganda uning leksik semantik (lisoniy) valentligi qanday o‘zgaradi, degan shaklda ham yoki so‘zning lisoniy leksik-semantik valentligi va so‘zshakl valentligi o‘zaro qanday munosabatda, bog‘lanishda, o‘zaro ta’sirda bo‘ladi, deb ham qo‘yish mumkin.

### **3.2. Otlashgan so‘zlardagi grammatik valentlikning leksik-semantik ta’siri darajalari**

Biz 2-bobda sintaktik hamda nosintaktik kategoriya shakllarining asos leksema semantik-sintaktik valentligiga ta’sirini misollar asosida kuzatdik. Bundan grammatik shakl so‘zning potensial (lisoniy) valentligini o‘zgartirishi, valentlikka mutlaqo ta’sir etmaydigan shakl yo‘qligi haqida xulosa chiqara olamiz. Leksema nutq jarayonida voqelanganda, tabiiyki, ma’lum bir so‘z shakl sifatida, ma’lum bir sintaktik pozitsiyada voqelanadi. Leksemaning lisoniy (potensial) leksik-semantik valentligi bu jarayonda, albatta, grammatik shakl valentligi bilan to‘qnashadi, uning ta’sirida ancha o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlar ham tizimiy tabiatga ega.

Sintaktik hodisa sifatida tasnif etiladigan kelishik, egalik, kesimlik shakllarining voqelanishi ma’lum bir sintaktik pozitsiya yoki mavqe bilan bog‘langanligi sababli ular leksemaning leksik-semantik valentligiga jiddiy o‘zgarish kiritadi — bir tomondan, uni kengaytirib, sintaktik pozitsiyaga mos yangi aktant (bo‘lak)lar bilan kengayish imkoniyatini bersa, ma’lum bir muayyan shaklga kirganligi uchun neytral birikish qobiliyatlarini birmuncha cheklaydi. Nosintaktik shakllar esa aksariyat hollarda so‘z birikuvchanligini toraytiradi, cheklaydi bu leksik- semantik birikuvchanlikning grammatik shakl ma’nosi bilan uyg‘unlashishini talab etadi. Biz quyida grammatik shakllarning valentlikka ta’siri bo‘yicha tasnifini berar ekanmiz, dastlab ko‘rilgan shakllarning valentlik qobiliyati xususidagi umumiy xulosalarni keltiraylik:

1. **Ko'plik son morfologik shakli** otlarning leksik valentligini cheklovchi – ularning aniq miqdorni ifodalovchi aniqlanmishlar bilan birikishiga monelik qiluvchi shakldir.

2. **Subyektiv baho shakllari** lug'aviy asos valentligiga miqdoriy emas, sifatiy o'zgarish beradi. Shakl yasovchi qo'shimchalar ma'nosi (kichraytirish, erkalash, ijobiy munosabat)ga zid bo'lgan so'zlar bilan birikishni cheklaydi, ularning ma'nosiga muvofiq bo'lgan so'zlar bilan birikishni talab qiladi.

3. **Sifatlardagi daraja shakli** [-roq], odatda, meyordan ortiqlikni ifoda etuvchi son, olmosh, sifatlardan birika olmaydi.

4. **Zamon kategoriyasi shakllari** son, subyektiv baho shakllari kabi leksema birikuvchanligini chegaralaydi.

5. **Mayl shakli** leksemaning so'zlovchining bayon etayotgan voqea, harakat, holat, hodisaga bo'lgan munosabatini ifodalovchi aktantlar, ya'ni hol va turli kiritmalar bilan birikuvchanligiga o'zgarish yasaydi, ya'ni cheklaydi. Chunonchi, aniqlik maylining o'tgan zamon va hatto, hozirgi hamda kelasi zamon shakllari istak, gumon, taxmin ma'noli kiritmalar (so'z-gaplar) bilan birika olmaydi.


6. **Harakat tarzi ko'rsatkichlari** gap qurilishida o'zgarish yasab, uni kengaytirishi yoxud ayrim birliklardan cheklashi mumkin.


7. Derivatsion/relyatsion mohiyati kelgan asosga yangi tilshunosligimizda munozarali bo'lgan **nokategorial/funksional shakllar** – derivatlar o'zi qo'shilib leksik-semantik valentlik bag'ishlaganidek, bu formantlar ham o'zlari qo'shilib keladigan so'zlarga yangi leksik-semantik valentlik beradi.

8. **Kesimlik kategoriyasi** so'zning leksik-semantik valentligini kengaytiradi – unga kesim mavqaida turib ega, kiritmalar va har xil hollar bilan birikish imkoniyatini beradi (3.7-chizma):

### Gap qolipining [W] va [Pm] asosida kengayishi

*Latofatning murg'akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi.*





Chizmada ko‘rib turganimizdek, I, II, III bosqichda tobe bo‘laklar aniqlandi. Bu so‘z, so‘z birliklari atash, nomlash xususiyatini ifodalaydi. Fikr ifodalash esa *Otash tashladi* frazemasida mujassamlashgan. *Otash tashladi* so‘zining valentligi asosida yuqoridagi gap hosil qilingan. Bu so‘zshakl ikki qismdan iborat: *otash tashla* - lug‘aviy ma’no ifodalovchi qism, *-di-* kesimlik ko‘rsatkichlari qismi, ya’ni bu [WPm]ra tengdir.

9. **Nisbat shakllari** asos shakl valentlik imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirib yuborish xususiyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Nisbat shakllari gap tarkibini turli aktantlar bilan to‘ldiradi va bu kengaytirilgan bo‘laklar har bir nisbat shaklida turli maqomda turadi.

10. **Egalik shakllari** tizimi leksema semantik-sintaktik valentligini mikdoran ko‘paytiradi.

11. Egalik shakli so‘z birikmasi tarkibida hokim mavqeda kelish va shu asosda tobe bo‘lak bilan imkoniy birikish valentligini bersa, kelishik shakllari so‘z birikmasi tarkibida tobe mavqeda kelish va shu kelishik shakli bilan imkoniy birikishga ega bo‘lgan birlikka tobelanishni zaruriy valentlik sifatida beradi.

Demak, grammatik shakllarning valentlikka ta’siri dastlab ikki turda – **kuchli va kuchsiz ta’sir** ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Leksema valentligiga **kuchli ta’sir** etuvchilar:

1. Faqat kengaytiruvchi;
2. Faqat toraytiruvchi;
3. Ham kengaytiruvchi, ham toraytiruvchi (aktantni sifat jihatdan o‘zgartiruvchi);
4. Ham toraytiruvchi, ham sifat jihatdan o‘zgartiruvchilarga bo‘linadi.

Asos leksema semantik-sintaktik valentligini **faqat kengaytiruvchi** shakllar tizimiga egalik, kesimlik kategoriyalari shakllari mansub bo‘ladi. Egalik shaklini

olgan hokim soʻz oʻzidan oldin qaratqichli soʻzshakl bilan kengaya olsa, kesimlik shaklidagi atov birligi gapda faqat kesim mavqeida keladi va gapga xos barcha boʻlaklar bilan birika olish qobiliyatiga ega boʻladi.

**Faqat toraytiruvchi shakllar** tizimiga otlarning leksik valentligini cheklovchi – ularning aniq miqdorni ifodalovchi aniqlanmishlar bilan birikishiga monelik qiluvchi koʻplik son morfologik shakli, leksemaning payt maʼnoli soʻzlar bilan birikishiga taʼsir etadigan zamon shakllari, leksemaning soʻzlovchining bayon etayotgan voqea, harakat, holat, hodisaga boʻlgan munosabatini ifodalovchi aktant (resp. lisoniy hollar, kiritma)lar bilan birikuvchanligiga taʼsir qiladigan mayl shakllari, feʼlning nofunktsional shakllari va soʻzning semantik-sintaktik valentligiga taʼsir xususiyati cheklash boʻlgan sifat daraja shakli mansub boʻladi.

**Ham kengaytiruvchi, ham toraytiruvchi** xususiyatga ega boʻlgan shakl nisbat formantlaridir (*Salima koʻylakni yuvdi – Koʻylak yuvildi; Salima koʻylakni yuvdi – Onasi Salimaga koʻylakni yuvdirdi*). Bu xususiyatga harakat tarzi shakllari va va kelishik kategoriyalari ham qisman ega.

**Ham toraytiruvchi, ham sifat jihatdan oʻzgartiruvchilarga** esa lugʻaviy asos semantik-sintaktik valentligiga miqdoriy emas, sifatiy oʻzgarish yasay oladigan subyektiv baho shakllari, asos leksemaga yangi leksik-semantik valentlik bera oladigan nokategorial shakllar kiradi.

Alohida qayd etish kerakki, nisbat kategoriyasi koʻrsatkichlari keltirilgan tasnifda alohida oʻrin tutadi hamda oraliq tabiatlidir. Chunki bu shakllar gap qurilishini ham kengaytirish, ham toraytirish, ham aktantlarni sifat jihatdan oʻzgartirish qobiliyatiga ega. Lugʻaviy asos semantik-sintaktik valentligiga grammatik kategoriyalar tasir etish xususiyati (kuchliligi)ga koʻra darajalanishi mumkin. Darajalanishning quyi bosqichida nosintaktik shakllar tursa, yuqori bosqichida nisbat turadi. Darajalanish qatorining oʻrtasida nisbat bilan nosintaktik kategoriyalar deb ataladigan son, subyektiv baho, zamon, mayl, sifat darajalari shakllari orasida feʼlning funksional shakllari harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllari turadi va buni quyidagicha ifodalash mumkin:

Leksik-semantik valentlikka taʼsirning kamaya borish darajasi

*Nisbat shakllari → kesimlik kategoriyasi/shaxs-son → egalik shakllari → kelishik shakllari → fe'ning funksional shakllari → son shakli → subyektiv baho shakllari → daraja shakli → zamon shakllari → mayl shakllari - - harakat tarzi shakllari.*

Shunday qilib, asos leksema semantik-sintaktik valentligini faqat kengaytiruvchilar sirasiga egalik, kesimlik, faqat toraytiruvchilar qatoriga ko'plik son, zamon, mayl shakllari, fe'ning funksional shakllari va sifat darajalari shakllari mansub bo'lsa, harakat tarzi va kelishik shakllari ham kengaytiruvchi, ham toraytiruvchilar sifatida, subyektiv baho shakllari, "nokategorial" shakllar esa ham toraytiruvchi, ham sifat jihatdan o'zgartiruvchilar sifatida kiritilishi mumkin. Fe'ning nisbat shakllari ham kengaytiruvchi, ham toraytiruvchi hamda sifat jihatdan o'zgartiruvchi sifatida chiqadi – asos leksemaning semantik-sintaktik valentligiga eng kuchli ta'sir eta oladigan grammatik shakl mavqeida bo'ladi.

### **III bob bo'yicha xulosa**

Leksemalar kabi grammatik shakllar ham valentlikka ega bo'lib, ular leksema valentligini o'zgartirishi, leksema valentligiga u yoki bu darajada ta'sir qilishi mumkin. Bu hodisani leksik-semantik valentlikdan farqli o'laroq grammatik valentlik deb atash va bu atama ostida morfologik shakl yoki sintaktik mavqe (pozitsiya)ning o'ziga xos birikuvchanligi, boshqa so'z yoki bo'lak bilan kengayishini talab qilishi va leksemaning semantik- sintaktik valentligiga ta'siri, uni o'zgartirishini tushunish lozim. Grammatik valentlik ham leksik-semantik valentlik kabi zaruriy (obligator), imkoniy (qo'shimcha, fakultativ) va neytral bo'la olishiga qaramay, uni leksik-semantik valentlik bilan tenglashtirish mumkin emas – ular ba'zi holatlarda o'zaro uyg'unlashishi, mos kelishi mumkin (aniq nisbat shaklidagi fe'l gapda kesim pozitsiyasida kelganda agens leksik-semantik valentligi va kesimlik kategoriyasining shaxs/son aktantlari v.b. kabi), lekin ular ayni bir narsa emas.

Leksik-semantik valentlikda so'zning turkum valentligi va SSG valentliklari farqlanganidek, grammatik valentlikda ham asos shakl valentligi va hosila shakl

valentligi farqlanadi. Bunda ham o'ziga xos parallelizmni ko'rish mumkin: SSSGlarda va hosila shakllarda turkum asos shakl uchun neytral bo'lgan aktantlar zaruriy yoki imkonsizlarga aylanadi.

Grammatik shakllarning leksemaning lisoniy leksik-semantik valentligiga ta'sirida quyidagi holatlar kuzatildi:

a) morfologik shakl valentligi so'zning leksik-semantik valentligini yangi aktantlar hisobida oshiradi;

b) morfologik shakl leksema valentligi aktantlar miqdorini emas sifatini o'zgartiradi;

d) morfologik shakl valentligi leksema valentligi aktantlar miqdorini kamaytiradi;

e) morfologik shakl valentligi leksema zoti (mohiyati)da mavjud bo'lgan imkoniyatlarni "qo'zg'atadi", imkoniyatni zaruratga aylantiradi.

Shu asosda grammatik shakllar:

a) faqat kengaytiruvchi;

b) faqat toraytiruvchi;

d) ham kengaytiruvchi, ham toraytiruvchi (aktantni sifat jihatdan o'zgartiruvchi);

e) ham toraytiruvchi, ham sifat jihatdan o'zgartiruvchi;

f) ham kengaytiruvchi, ham toraytiruvchi hamda sifat jihatidan o'zgartiruvchi kabilarga bo'linadi.

## XULOSA

O‘zbek tilida otlashgan so‘zlarda grammatik valentlikni aniqlash, leksik-semantik valentlik, uning mohiyati, o‘rganilishi va sintaktik qolip tuzilishini belgilashdagi ahamiyati, grammatik valentlik va uning sintaktik qurilma tuzilishidagi ahamiyati, o‘zbek tilida otlashgan so‘zlarda grammatik valentlik va uning sintaktik qurilma tuzilishini belgilashdagi ta’siri yuzasidan dissertatsiyamizdagi tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Turkiy tillarni ilmiy asoslarga o‘rganish o‘z ibtidosini XI asrdan boshlab hozirga qadar uzluksiz davom etib kelayotganligiga qaramay, XI-XIX asrlarda sintaksis tahlili va talqiniga bag‘ishlangan birorta ham maxsus ishni sanab o‘tolmaymiz. Vaholanki, fonetika, leksika, hatto morfologiya bo‘yicha yuzlab tadqiqot va tavsiflar mavjud. To‘g‘ri, Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariy o‘z “Devon”ida o‘zining sintaksisga bag‘ishlangan maxsus asari –“Javohiru–n–nahv fi lug‘oti–t–turk” (“Turkiy tillar grammatikasi (sintaksisi) javohirlari”) borligini alohida ta’kidlaydi. Bu asar hozircha ma’lum bo‘lmasa ham, ayta olamizki, uning materiallari sintaksisning hozirgi zamonaviy talqinidan ancha yiroq va, asosan, arab tilshunosligi an’analariga muvofiq ravishda, morfologik shakllarning qo‘llanilish tavsifi bilan chegaralangan bo‘lishi mumkin. O‘tgan asrning 70-yillariga kelib, formal tahlil usuliga tayangan o‘zbek sintaktik nazariyasi va o‘zbek tili sintaktik qurilishining talqini tugal shakllandi, 1976-yilda nashr etilgan ilmiy grammatikasida umumlashtirildi, formal tahlil yutuqlari asosida o‘zbek tili sintaktik qurilishining boshqa tadqiq metodlari, jumladan, sistem-struktur tahlil usullari bilan chuqurlashtirish, formal tavsif asosida qator ustqurma tahlillarda tilimiz sintaktik qurilishidagi turli-tuman paradigmatlarni va paradigmatic munosabatlarni ochish ishlariga zamin hozirlandi.

2. XX asr tilshunosligida rivojlangan ikki xil tahlil usuli valentlik nazariyasi asosida va til leksikasini sistema sifatida o‘rganish usullari zaminida qo‘lga kiritilgan natijalar o‘zaro uyg‘un emas va bir-birini rad etadi. Ma’lum bir ma’noviy to‘plamda turli valentlik xususiyatli so‘zlar va, aksincha, bir xil



valentlik qobiliyatli soʻzlar har xil maʼnoviy guruhlardan oʻrin oladi. Substansial tilshunoslik lugʻaviy maʼnoviy guruhlardan tarkiban ancha katta boʻlgan semantik-sintaktik guruh (SSG) tushunchasini kiritib, bu ziddiyatni bartaraf etdi. SSGga ham maʼnoviy, ham valentlik xususiyatlari bilan umumiylikka ega boʻlgan leksik birliklar birlashadi va bunday SSGning har bir birligi nutqiy voqelanishda ayni bir turdagi sintaktik qurilmaga asos boʻla oladi. Shuning uchun SSGlar sintaktik qurilma tarkibi va mavqeini belgilashda, kelajakda modellashtirish, mashina (avtomatik) tarjima, nutqni qayta bunyod etish jarayonlarida qoʻl keladigan toʻplamlardir.

3. Leksik-semantik qoliplar shakllana borarkan fanga valentlik tushunchasi ham kirib kela boshladi. Valentlik soʻzi asli kimyo sohasiga tegishli boʻlib, biror element atomining boshqa element atomlari bilan birika olish qobiliyatini bildiradi. Tilshunoslikda valentlikning paydo boʻlishida esa, til birliklarining oʻzaro birikish xususiyatlari sabab boʻlgan degan xulosani keltira olamiz.

4. Feʼl soʻz turkumi doirasida SSGlar A.A.Salkalamanidze tomonidan qisman tavsiflangan boʻlsa, ushbu ishda ism turkumlariga oid SSGlarni ajratish tajribasi amalga oshirildi. Biz hozircha bu soʻz turkumlari ichida  $nSSG^h$ ,  $nSSG^k$ ,  $nSSG^e$ ,  $nSSG^q$ ,  $aSSG^a$ ,  $aSSG^T$ ,  $nuSSG$ ,  $adSSG^{talab/}$ ,  $adSSG^{ma}$  kabi SSGlarni ajratish va ular tuza oladigan sintaktik qurilmalarning tarkibiy modellarini berishga muvaffaq boʻldik.

5. Substansial tilshunoslik valentlik nazariyasini grammatik shakl valentligi va sintaktik mavqe valentligi ilmiy tushunchalari bilan toʻldirdi. Ushbu ishda olib borilgan kuzatishlar asosida oʻzbek tili grammatik (morfologik) shakllarini asos leksemaning semantik-sintaktik qobiliyatiga taʼsiri jihatidan: a) faqat kengaytiruvchi; b) faqat toraytiruvchi; v) ham kengaytiruvchi, ham toraytiruvchi (aktantni sifat jihatdan oʻzgartiruvchi); g) ham toraytiruvchi, ham sifat jihatidan oʻzgartiruvchilarga ajratish mumkin.

6. Otlashgan soʻzlarning semantik-sintaktik valentligiga grammatik shakllar *taʼsir kuchi* asosida ularning darajalanish qatori keltirildi. Darajalanish

qatorida ta'sir kuchining kamaya borish belgisiga ko'ra shakllar *nisbat ~ shaxs/son ~ egalik ~ kelishik ~ fe'lning funksional shakllari ~ son ~ subyektiv baho shakllari ~ sifat darajalari ~ zamon ~ harakat tarzi* tartibda tizilishini ko'rsatdi.

7. Til birliklari munosabatida g'oyatda muhim o'rin tutadigan grammatik valentlik nafaqat bu munosabatlardagi leksemalar valentligiga, ayni paytda, ular ifodalaydigan ma'nolarning stilistik tovlanishlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

8. Valentlik nazariyasi SSG va grammatik valentlik tushunchalari bilan to'ldirilgandan keyingina o'z oldiga qo'ygan hamda modellashtirishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadni – so'z ma'lum bir shaklda nutqda voqelanganda qanday turdagi sintaktik qurilmani bera olishini bashorat qilish vazifasini bajara oladi va kelajak avtomatik tahlillarda katta foyda keltirishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. FLEISCHER, W. Kleine Enzyklopädie. Deutsche Sprache. Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1983.
2. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili // Xalq so‘zi. - 2017.- 6 yanvar. - B.1.
3. Ne'matov H., G'ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. - Toshkent: Oqituvchi,
4. № 5. – Б. 73-75.; Айюб Гуломовнинг илмий мероси (3-китоб). Морфемикага оид маколалар. - Тошкент: Университет, 2007. - 135 б.;
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy ozbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006.- 464 b.
6. Sayfullayeva R. Ба 6. Hozirgi o zbek adabiy tili - Toshket: Fan va texnologiya, 2010.- Б. 23-30
7. Sommerfeld Karl-Ernst, Schreiber Herbert. Worterbuch zur Valenz und Distribution der Substantive. WEB Bibliographisches Institut Leipzig, 1980. - 432 s.
8. Sulaymonova, G. S. (2016). Til insoniy muloqot vositasi sifatida. S. K. Jalilovada (Tahr.), Fundamental tadqiqotlar: muammolar va yechimlar: IV Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari (318-321-betlar). Qostanay davlat pedagogika universiteti.
9. Абдуллаев А. -гина интенсивлик ифодаловчи аффикс сифатида//Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1973.
10. Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро кандай боғланади? - Тошкент: Фан, 1974.- 75 б.; Абдуллаев Ф., Иброхимова Ф. Ўзбек тилида бошқарув. Тошкент: Ўзбекистон, 1982. -140 б.; Абдуллаев Ф., Иброхимова Ф. Сўз бирикмаси синтаксисининг ривожланиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1972. - No2.- Б. 36-41.; Иброхимова Ф. Именное управление в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1972.- 34с.; Иброхимова Ф. От бошқарувининг айрим масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. -

- Тошкент, 1971. - №2. - Б. 47-51.; Иброҳимова Ф. Сифат бошқаруви // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1971. - №6. - Б. 34-37.
11. Абдуллаев Ф., Иброҳимова Ф. Ўзбек тилида бошқарув. Тошкент: Ўзбекистон, 1982. -140 б.; Акрамов Т. Именное сказуемое в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1967. 22 с.
12. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 1994. – 136 б.; Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. - Тошкент, 1997.-22 б.
13. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. Тошкент, 1997. - 22 б.; Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва семантик имкониятлари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. - Тошкент, 1996. - 23 б.; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. - Ташкент, 1989. – 191 с. "Биз грамматик валентлик ҳамда морфологик шакл валентлиги атамаларини тенг қийматли синонимлар сифатида қўллаш ва бунинг назарий асослари навбатдаги бобда очиқ берилди.
14. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. Тошкент, 1997. - 22 б.; Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва семантик имкониятлари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. Тошкент, 1996. - 23 б.
15. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. Тошкент, 1997. - 22 б.; Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (содда гап синтаксиси учун материаллар). Тошкент: ЎЗМУ, 2002.- 117 б.

16. АПРЕСЯН, Ю. Д. Избранные труды, том I. Лексическая семантика. Москва: Школа «Яз. р. культуры», 1995. С 121
17. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш: Филол. фан. номз.... дисс Тошкент, 2009. - 182 б.
18. Аскарлов И. ва б. Кимё. 7-синф дарслиги. - Тошкент: Шарқ, 2005. -Б. 31
19. аффиксов в узбекском языке // Советская тюркология. - Москва, 1979. - №3. - С.48-56.
20. Балакаев М.Б. Современный казахский язык. Синтаксис. Алма-Ата: Наука, 1959. - 235 с.
21. Бальвег-Шрамм А., Шумахер Г. Словарь глагольных валентностей на семантической основе// Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XIV. Проблемы и методы лексикографии. - Москва: Прогресс, 1983. - С. 201-226; Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. - Москва: Прогресс, 1988.- 656 с; Helbig G., Schenkel W. Worterbuch zur Valenz und Distrbution deuthen Verben. VEB Bibliodraphisches institut.- Leipzig, 1969.; Sommerfeld Karl-Ernst, Schreiber Herbert. Worterbuch zur Valenz und Distribution der Substantive. WEB Bibliographisches Institut Leipzig, 1980. – 432 s.
22. Бахриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими. Феълнинг тур категорияси: Филол. фан. номз.... дисс. - автореф. - Самарқанд, 2002. – 23 б.; Зикриллаев Ғ. Истиклол ва адабий тил. - Тошкент: Фан, 2004. - 119 б.; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. Ташкент: Фан, 1989. - 191 с.
23. ВАСИЛЬЕВА, Н. В. – ВИНОГРАДОВ, В. В. – ШАХНАРОВИЧ, А. М. Краткий словарь лингвистических терминов. Москва: «Русский язык», 1995.
24. ГАК, В. Г. Валентность. In Языкознание. Большой энциклопедический словарь. Москва: «Большая Российская энциклопедия», 1998
25. Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Автореф. ... дисс.

- канд. филол. наук. - Ташкент, 1983. -22 с.; Мадрахимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни тасниф қилиш асослари: Филол. фан. номз.... дисс. Бухоро, 1994. - 174 б.
- 26.Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения. Имя. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1987. - 170 с.; Глагол. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1990. - С.160.; Гузев В.Г., Насилов Д.М. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие «грамматическая категория» // Советская тюркология. Москва, 1981.- №3. - С. 36-41.
- 27.Ёров Б. Уюшиқ бўлакчи содда гаплар талқинига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1996. – №4. –
- 28.Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка - Л.: ЛГУ, 1959. - 152 с.
- 29.Иванов С.Н. Родословное древо тюрков Абул-Гази Хана. Грамматический очерк (имя и глагол). Тошкент: Фан, 1969. - 204 с.
- 30.Каримжонова В.А. Ўзбек тилида ўрин келишикли бирикмалар семантикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.- Тошкент, 1994. -24 б.
- 31.КАРПОВ, А. К. – ФРОЛОВ, Н. К. – ШУРЫГИН, Н. А. Учебный словарь лингвистических терминов и понятий: Учебное пособие. Нижневартовск: Изд-во Нижневартовского педагогического института, 2002.
- 32.КАСАТКИН, Л. Л. – КЛОБУКОВ, Е. В. – ЛЕКАНТ, П. А. Краткий справочник по современному русскому языку. Москва: «Высшая школа», 1991.
- 33.Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности // Вопросы языкознания. - Москва, 1987. - №3. - С. 20-32;
- 34.Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности/Вопросы языкознания. - Москва, 1987. - №3. - С. 20-32.; Кацнельсон С.Д. О грамматической категории // Вестник ЛГУ. Серия истории языка и литературы. - Л.,
- 35.КАЦНЕЛЬСОН, С. Д. К понятию типов валентности. Вопросы языкознания 1987, № 3, с. 20–32.

- 36.КАЦНЕЛЬСОН, С. Д. Типология языка и речевое мышление. Ленинград: «Наука», 1972. С 177
- 37.Кибардина С.М. Категории субъекта и объекта и теории валентности // Категория субъекта и объекта в языках различных типов.-Л.: Наука, 1972. - С.23-44.
- 38.Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. - Ташкент: Фан, 1948. - 283 с.; Турсунов У. ва б. Ҳозирги узбек адабий тили. - Тошкент, Ўзбекистон, 1992. - 399 б.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006.-464 b. Тошкент,
- 39.Курбонова М. Фитрат - тилшунос. - Тошкент: Университет, 1996.-326.
- 40.Кучкартаев И.К. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке. - Ташкент: Ўқитувчи, 1977. – 168 с.
- 41.Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия - Тошкент: Фан, 1975.-140 б.; Нарзиева М. Семантическая структура и компонентный анализ имен существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1992.-22с.
42. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-жилд.-Т.: ЎзМУ, 2004.- 285 б.
- 43.Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2007. - 306.
44. Муҳамедова С.Х.Ўзбек тилидаги ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан.д-ри ... дисс.Тошкент, 2007. - 402 б.; Расулов Р. Лексико-семантические группы глаголов состояния и их валентность. - Ташкент: Фан, 1991.-177с.; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категорияларнинг ўзаро муносабати: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 1994. -57 б.
- 45.Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилидаги ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. Тошкент, 2007.402 б

- 46.Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилидаги ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан.д-ри ... дисс. Тошкент, 2007.402 б.
- 47.Муҳаммедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. - Тошкент: Фан,
- 48.Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. - Тошкент, 1997. - 21 б.
- 49.Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. 21 б.
- 50.Неъматов Ҳ. Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субстанциал йўналишлар хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2009. - №4. - Б. 35-41.; Неъматов Ҳ. Сўз яшаш қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент, 2007. №4. - Б. 14-19.; Ne'matov H.G', Megliyev B., 93
- 51.Неъматов Ҳ.Ф. Сўз яшаш қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент,
- 52.Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. - Ташкент: Фан, 1989. – 191 с. "Бу ерда бобнинг навбатдаги бандида кўриладиган морфологик (грамматик) валентлик етакчилик қилади
- 53.Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И. и др. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса // Советская тюркология. Москва, 1988. - №4. - С. 3-8.
- 54.Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантико синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке // Советская тюркология. - Москва, 1979. - №3. - С.48-56.
- 55.Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантико синтаксические группы глаголов и значение залоговых
- 56.Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 1-ое изд. - Москва: Уч. пед. из., 1938. - 452



- 57.Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. - Тошкент: Фан, 1989. - 142 б.
- 58.Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. - Тошкент: Фан, 1989.
- 59.Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989.
- 60.РОЗЕНТАЛЬ, Д. Э. – ТЕЛЕНКОВА, М. А. Словарь-справочник лингвистических терминов. Пособие для учителей. Москва: «Просвещение», 1985.
- 61.Саидова М.Р. Сравнительно-типологическое исследование односоставных предложений в русском и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1996. – 24 с.).
- 62.Сайидрахимова Д.С. Сўз туркумлари тизимида равишнинг ўрни. Ўш, 2005. - 90 б. "Т.Асадов ўз тадқиқотида ўзбек формал грамматикаси бўйича дарслик ва қўлланмаларда, 2 жилдли “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да равиш сифатида берилган 1210 сўзнинг рўйхатини беради ва шулардан бир нечтасининг субстанциал талкинда, том маънода, ўзгармас сўз равиш бўла олишини қайд этади.
- 63.Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Бокиева Г. ва б. Хозирги ўзбек тили. - Тошкент ЎЗМУ, 2007.-Б. 38; Сайфуллаева Р.ва б. Хозирги ўзбек тили. - Тошкен: Фан ва технология, 2009.-416 б.
- 64.Степанова М.Д. Теория валентности и валентный анализ (на материале современного немецкого языка). - Москва: Высшая школа, 1973. - 215 с.
- 65.Степанова М.Д., Хельвиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. - Москва: Высшая школа, 1978. - 257 с; Бальвег-Шрамм А., Шумахер Г. Словарь глагольных валентностей на семантической основе /Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XIV. Проблемы и методы лексикографии. - Москва: Прогресс, 1983. - С. 201-226.

66. студентлари учун дарслик.- Тошкент: Ўқитувчи, 1980. - 448 б.
67. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. - Москва: Прогресс, 1988. - 656 с.
68. ТЕНЬЕР, Л. Основы структурного синтаксиса. Москва: «Прогресс», 1988. С 23
69. ТЕНЬЕР, Л. Основы структурного синтаксиса. Москва: «Прогресс», 1988. С 56
70. Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия. Ўқув кўлланма. - Тошкент: Университет, 1980.-91 с.
71. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент, Ўзбекистон, 1992. - 399 б.; Шоабдурахмонов
72. Ўзбек тили грамматикаси. 2-том. Синтаксис. – Т.: Фан, 1976 142 б.
73. Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. – Тошкент: Фан, 1975.
74. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1-жилд.-Москва: Русский язык, 1981. - Б. 172
75. Ўзбек тилшунослигида бу йўналишда килинган ишларнинг муфассал тахлили И.Кучкортоев, З.Бегматов, хусусан, ш.Искандарова ишларида берилган.
76. Ф. Исхаков Ф.Г. Лексико-грамматическая классификация слов или части речи в тюркских языках// Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Морфология. Ч. II. Москва: Наука, 1956. С. 72-77.; Исхаков Ф.Г. Имя прилагательное // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Морфология. Ч. II. Москва: Высш. школа, 1956. - С. 143-176.
77. Фан, 2010. - Б. 88-98.
78. фан. номз.... дисс. автореф. - Тошкент, 1997. – 22 б.
79. Филичева Н.И. Понятие синтаксической валентности в работах зарубежных языковедов // Вопросы языкознания. - Москва, 1967. - №2. - С.119-120.

80. ФИЛЛМОР, Ч. Дело о падеже. In Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X. Лингвистическая семантика. Москва: « Прогресс», 1981, с. 369–496.
81. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. - Тошкент, 2001. - 51 б.
82. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент, 1994.-19 б.
83. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашишининг назарий масалалари. – Тошкент:
84. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм // Ғ.Абдурахмонов тахрири остида. - Тошкент: Фан, 1966. Т.I. – 390
85. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм / Ғ.Абдурахмонов тахрири остида. - Тошкент: Фан, 1966. Т.I. - 390 б.; Т.II. - 508 б.; Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз. ... дисс. — Самарқанд, 1993.-152 б.
86. Цалкаламанидзе А.А. Об одной особенности обстоятельства места В языке «Атебат-ул-хакайык» // Советская тюркология. 1975. No2. С. 74-76.
87. Цалкаламанидзе А.А. Семантико-синтаксические группы глаголов в узбекском языке. Тбилиси: Мецниереба, 1987. – 129 с.
88. Цалкаламанидзе А.А. Семантико-синтаксические группы глаголов в узбекском языке. Тбилиси: Мецниереба, 1987. – 129 с.
89. Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультети
90. Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент, 1996. - 23 б.
91. Шведова Н.Ю. Детерминирующий объект и и детерминирующее обстоятельство как самостоятельные распространители предложения// Вопросы языкознания. 1964.- No44.-С. 77-94.; Шведова Н.Ю. Существуют ли все-таки детерминантные распространители предложения//Вопросы языкознания. – Москва, 1968. - No2. - С. 39-51.

- 92.Ширинова Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Филол. фан номз. ...дисс. - Бухоро, 2010.-157б.
- 93.Шокирова Ҳ. Ўзбек тилида кесимлик шаклидаги шахс актантининг воқеланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. - Тошкент, 2009. -21 б
- 94.Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. - Самарқанд: СамДУ, 1996. – 126 б.; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фан. д-ри. ... дисс. - Самарқанд, 2005. - 250 б.
- 95.ЯРЦЕВА, В. Н. Языкознание. Большой энциклопедический словарь. Москва: «Большая Российская энциклопедия», 1998.